

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

**IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB, MAKTAB-
INTERNAT HAMDA AYRIM FANLAR
CHUQURLASHTIRIB O‘QITILADIGAN SINFLAR
UCHUN ADABIYOT FANIDAN UZVIYLASHTIRILGAN
O‘QUV REJA VA DASTUR**

(V-IX SINF)

TOSHKENT – 2011

Mualliflar: B.To'xliyev – TDPU professor, fil, f. doktori.
B.Karimov – O 'zMU professor, fil, f. doktori.
N.G'ulomova – RTM metodisti
G.Mamanboyeva – Yakkasaroy tumanidagi
91-maktab o'qituvchisi
M.Valiyeva– Yunusobod tumanidagi 274- maktab
o'qituvchisi

**Ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktablari uchun adabiyot fanidan
o'quv reja
(5-9-sinflar)**

	O'quv fanlari	Sinflar					Haf.	Yillik s.
		5	6	7	8	9		
	Davlat ixt. s.	30	32	33	34	35	164	5576
1.	Rus tili	2	2	2	2	2	10	340
2.	Xorijiy til	3	3	3	3	3	15	510
3.	Tarix	2	2	3	3	3	13	442
4.	Davlat va h.as.	-	-	-	1	1	2	68
5.	Iqtisodiy b.as.	-	-	-	1	1	2	68
6.	Matematika	4*	4*	4.5*	5	5	22,5	765
7.	Informatika	0.5	0,5	0.5	1	2	4,5	153
8.	Fizika	-	2	2	2	2	8	272
9.	Kimyo	-	-	2	2	2	6	204
10.	Biologiya	1	2	1.5*	2	2	8,5	289
11.	Tabiiyot va geografiya	1	2	2	2	1.5*	8,5	289
12.	Vatan tuyg'usi	1	1				2	68
13.	Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari			1	1	1	3	102
14.	Musiqqa madaniyati	1	1	1			3	102
15.	Tasviriy san'at	1	1	1			3	102
16.	Chizmachilik				1	1	2	68
17.	Mehnat	1*	1*	1*	-*	-*	3	102
18.	Jismoniy tarbiya	2	2	2	2	2	10	340
Maxsus fanlar								
1.	Adabiyot	4	3	3	3	4	17	578
2.	Ona tili	6	5	3	3	2	19	646
3.	Ifodali o'qish	1	1				2	68
4.	Notiqlik san'ati			1	1	1	3	102
	Jami	11	9	7	7	7	41	1394
Maktab ixtiyoridagi soatlar								
1.	Kons ol. Sayohat	0.5	0.5	0.5			1.5	51
2.	Yo'l harakati qoidallari	0.5	0.5	0.5	0.5		2	68
3.	Sog'lom avlod asoslari	0.5	0.5	0.5	0.5	0.5	2.5	85
4.	Dunyo dinlari tarixi					1	1	34
	Maktab ix. s.	1,5	1,5	1,5	1	1,5	7	238
	Um.soat.	32	34	35	36	37	174	5916
	Amaliy meh.m.	6	6	10	16			

O'QUV REJAGA TUSHUNTIRISH XATI

Ushbu o'quv reja O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi» qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 16-avgustdagi 390-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari» asosida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarining 2009-2010 o'quv yiliga mo'ljallangan XTVning 2009 -yil 1-apreldagi 75-sonli, 2008 yil 7-avgustdagi «Ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi 173-sonli qarorlari hamda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Sanitariya qoidalari va me'yorlari» asosida tuzilgan.

Adabiyot fanining nazariy asoslarini chuqur o'rganish va amalda qo'llay olishni o'rgatish maqsadida amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish nazarda tutildi.

5-sinflar uchun davlat ixtiyoridagi ajratilgan soatlardan: yuqorida berilgan o'quv rejaning (shartli ravishda I, II guruh) I guruhiga kiruvchi fanlardan **matematika** fanidan 1 soat, **musiq** **madaniyati** fanidan 1 soat olib berildi.

6-sinflar uchun davlat ixtiyoridagi ajratilgan soatlardan: yuqorida berilgan o'quv rejaning (shartli ravishda I, II guruh) I guruhiga kiruvchi fanlardan **matematika** fanidan 1 soat, mehnat fanidan 1 soat olib berildi.

Musiq madaniyati fani 5-6 sinflarda adabiyot fanini ijtimoiy turmushda qo'llanishi shu soha bo'yicha o'quvchilarni kasb ixtisosligiga yo'naltirish uchun maskur fan adabiyot fani bilan integratsiyalashtirilib maxsus fanlar qatoriga kiritildi.

Matematika va musiq fani bo'yicha mavzuiy rejalashtirish, adabiyot fani va suxandonlik yondosh fanlari bo'yicha o'quv dasturlari Respublika Ta'lim markazi tomonidan joylardagi ta'lim markazlarining o'quv muassasasini malakali mutaxassislar bilan ta'minlanganligi va o'quv moddiy bazasining mavjudligi to'g'risidagi ma'lumoti hamda maktab pedagogika kengashining qaroriga binoan tasdiqlanadi.

Yozgi amaliy mehnat mashg'ulotlari uchun ajratilgan 5-sinf uchun 4 soatdan 6 kunlik, 6-sinf uchun 4 soatdan 6 kunlik vaqt o'quvchilarning mehnat ko'nikmalarini shakllantirish va kasbga yo'naltirish maqsadida maxsus ishlab chiqilgan, ota-onalar, mahalla qo'mitalari raislari bilan kelishilgan, maktab direktori tomonidan tasdiqlangan jadval asosida adabiyot fanidan amaliy mashg'ulotlar (kutubxona kitoblarini sozlash, yozuvchi- shoirlarning uy- muzeylariga sayohatlar uyushtirish, o'qilgan badiiy asarlar yuzasidan sahna ko'rinishlari tayyorlash (maktab lageri dam oluvchilari uchun) va h. k. tadbirlarni o'tkazish uchun sarflanadi.

7-sinflar uchun davlat ixtiyoridagi ajratilgan soatlardan: yuqorida berilgan o'quv rejaning (shartli ravishda I, II guruh) I guruhiga kiruvchi matematika fanidan 1 soat, geografiya hamda tasviriy san'at fanlaridan 0,5 soatdan olib berildi.

8-sinflar uchun davlat ixtiyoridagi ajratilgan soatlardan: yuqorida berilgan o'quv rejaning (shartli ravishda I, II guruh) I guruhiga kiruvchi **matematika** fanidan 1 soat, **chizmachilik** fanidan 0,5 soat, maktab komponentidan 0,5 soat olib berildi.

9-sinflar uchun davlat ixtiyoridagi ajratilgan soatlardan: yuqorida berilgan o'quv rejaning (shartli ravishda I, II guruh) I guruhiga kiruvchi **matematika** fanidan 1 soat, **biologiya** va **chizmachilik** fanlaridan 0,5 soatdan olib berildi.

Matematika, tasviriy san'at, geografiya, biologiya va chizmachilik fanlari bo'yicha mavzuiy rejalashtirish, adabiyot fani yuzasidan «Notiqlik san'ati» yondosh fani bo'yicha o'quv dasturlari Respublika Ta'lim markazi tomonidan tayyorlandi.

Yozgi amaliy mehnat mashg'ulotlariga ajratilgan 7-sinf uchun 10 kun 4 soatdan, 8-sinf uchun 4 soatdan 16 kunlik vaqt o'quvchilarning mehnat ko'nikmalarini shakllantirish va kasbga yo'naltirish maqsadida maxsus ishlab chiqilgan, ota-onalar, mahalla qo'mitalari raislari bilan kelishilgan, maktab direktori tomonidan tasdiqlangan jadval asosida adabiyot fanidan amaliy mashg'ulotlar (kutubxona kitoblarini sozlash, yozuvchi- shoirlarning uy- muzeylariga sayohatlar uyushtirish,

o'qilgan badiiy asarlar yuzasidan sahna ko'rinishlari tayyorlash (maktab lageri dam oluvchilari uchun) va h. k. tadbirlarni o'tkazish uchun sarflanadi.

Ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internat hamda ayrim fanlar chuqurlashtirib o'qitiladigan sinflarning uzviylashtirilgan "Adabiyot" o'quv dasturiga sharh

Optimallashtirilgan o'quv dasturlari, jumladan "Adabiyot" o'quv dasturi, Oliy va o'rta maxsus ta'limi va Xalq ta'limi vazirliklarining 2010 -yil 1- iyuldagi "Umumiy o'rta, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitilayotgan umumta'lim fanlari hamda oliy ta'limda davom ettiriladigan fanlar dasturlari uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash to'g'risida"gi (6/2-sonli) 4/1-sonli Qo'shma hay'at majlisi qaroriga asosan tasdiqlandi.

Shunga ko'ra, ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini takomillashtirish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilardagi qobiliyat va iste'dodni yanada kamol toptirish uchun fan yo'nalishlari bo'yicha ixtisoslikka yo'naltirilgan o'quv dasturlarini optimallashtirilgan dasturlarga moslashtirish maqsadida Respublika ta'lim markazining 2010 yil 22-sentabrdagi "Ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalarining o'quv dasturlarini optimallashtirish to'g'risida"gi 62-sonli buyrug'i qabul qilindi.

Ushbu buyruqda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan filologiya fanlari doktorlari: Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti professori B.To'xliyev, O'zbekiston Milliy universiteti professori B.Karimov, Yakkasaroy tumanidagi 91-maktab o'qituvchisi G.Mamanboyeva, RTM metodisti N. G'ulomova, Respublika musiqa va san'atga ixtisoslashgan maktab o'qituvchisi F.Mamatqulova kabi olim, metodist va amaliyotchi o'qituvchilardan iborat guruh tomonidan optimallashtirilgan "Adabiyot" dasturidagi o'zgarishlarni ixtisoslikka yo'naltirilgan "Adabiyot" o'quv dasturi mazmuniga singdirish va soatlarni moslashtirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirildi.

Umumta'lim maktablarining optimallashtirilgan "Adabiyot" dasturi bo'yicha amalga oshirilgan quyidagi ishlar:

I.Uumumta'lim maktabi dasturi bo'yicha jami 39 soat hajmidagi 19 ta mavzu optimallashtirilib, **5-sinf** bo'yicha Hamzaning "Dardiga darmon istamas", "Jonlarni jononi Vatan", E. Vohidovning "O'zbekim" she'rlari, "To'maris", "Shiroq" asarlari, O'.Umarbekovning "Qizimga maktublar", M.Qorievning "Qaldirg'ochlar bahorda keladi", Shukrulloning "Umr haqida ertak" asarlari, **6-sinfda** E.Vohidovning "Nido" asari, J. Jabborov. "She'rlar", **7-sinfda** M.Osimning "Zulmat ichra nur", "She'rlar", Zavqiyning "Shohimardon xotirasi", Sh. Xolmirzaevning "O'zbeklar", Sh. Rahmonning "She'rlar"i, Navoiyning "Shoh G'oziy", **8 - sinfda** Nodiraning "Firoqnoma", Firdavsiyning "Shohnoma" asarlaridan parchalar, 9-sinfda "Xamsa" asaridan parchalar("Layli va Majnun", "Saddi Iskandariy") kabi asarlar murakkabligi, takrorligi, o'quvchi yosh xususiyatiga mos emasligi sababli sinfdan-sinfga, kasb - hunar ta'limi dasturiga o'tkazildi va dasturdan chiqarildi.

II. Dasturdan chiqarilgan mavzu o`rniga **5 - sinfga** A.Avloniyning “Vatanni suymak”, “Vatan”, E.Vohidovning “Nido, J. Sviftning “Gulliverning sayohatlari”, M. Osimning “Zulmat ichra nur”, Asqad Muxtor. “She’rlar”i kiritilgan. **6 - sinfga** E.Vohidovning “O`zbegin” qasidasi, H. Olimjonning “O`zbekiston” she’ri kiritilgan. **7 -sinf** dasturiga O‘.Umarbekovning “Qiyomat qarz”, Hamzaning “She’rlar”i, Mirmuhsinning “Me’mor”, Zavqiyning “Ahli rasta hajvi”, “Ajab ermas” she’rlari, Xayriddin Saloh “Yulduzlar afsonasi”, “Kun va tun” she’rlari kiritildi. Navoiyning “Mehr va Suhayl” asari kengaytirilib (2soat emas, 4 soat) o`rganilishi ko`zda tutildi. 8-sinfga Nodiraning “G`azallar”i, va Fuzuliy g`azallari kiritilgan. 9 -sinfda “Farhod va Shirin” asarini kengaytirib o`rganilishi ko`zda tutilganligi guruh tomonidan ko`rib chiqib, muhokama qilindi va asosan ma’qullandi. Shuningdek, guruh tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Umumta’lim maktablari boyicha optimallashtirilgan mavzular ixtisoslashtirilgan maktablar dasturi bilan qiyoslab chiqildi va **49 soat** hajmidagi **19** ta mavzu optimallashtirildi. Shundan **18** soatli **5** ta mavzu sinfdan -sinfga ko`hchirildi, **19** soatli **9** ta mavzu dasturdan chiqarildi va **11** soatli **4** ta mavzu kasb-hunar ta’limi dasturiga otkazildi. **29** soatli **9** ta mavzu dasturga yangidan kiritildi. Yetishmagan soatlar hisobidan 5-sinfga A.S. Pushkinning “Shoh Saltan haqida ertak” va H.H. Niyoziyning “Yolg`onchining jazosi”; 6-sinfga H. Xorazmiyning “Bo`z to`quvchi kampir”; 8- sinfga M. Shayxzodaning “She’rlar”i kiritildi. Shuningdek, guruh a’zolari tomonidan yangidan kiritilgan mavzular va ayrim soatlardagi farqlar muvofiqlashtirib chiqildi.

Ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim muassasalarining optimallashtirilgan o`quv dasturlari Xalq ta’limi vazirligi hamda Davlat Test markazining 2011 yil 4-iyuldagi “Ayrim fanlar chuqur o`rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta’lim muassasalarining optimallashtirilgan o`quv dasturlarini tasdiqlash to`g`risida”gi 146 (27)-sonli qo`shma buyrug`i bilan tasdiqlandi (shunga ko`ra Xalq ta’limi vazirligi hamda Davlat Test markazining 2008 yil 7 noyabrdagi “Ayrim fanlar chuqur o`rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta’lim muassasalarining namunaviy o`quv rejalari, dasturlarini tasdiqlash to`g`risida”gi 296-, 01-387 KB –sonli qo`shma buyrug`i bekor qilindi).

Mazkur optimallashtirilgan o`quv dastur 2011-2012 – o`quv yilidan boshlab amaliyotga joriy etildi.

Guruh a’zolari:	B.To’xliyev – TDPU professori, fil, fan. doktori.
	B.Karimov – O`zMU professori, fil, fan. doktori.
	N.G’ulomova – RTM metodisti
	G.Mamanboyeva – Yakkasaroy tumanidagi
	91-maktab o`qituvchisi
	M.Valiyeva– Yunusobod tumanidagi 274- maktab
	O`qituvchisi

Uqtirish xati

Adabiyotga ixtisoslashtirilgan maktablar va chuqurlashtirib o'qitiladigan sinflar uchun tuzilgan o'quv dasturi umumiy o'rta ta'lim maktablari 5-9 sinflari uchun uzviylashgan va uzluksizligi ta'minlanib, takomillashtirilgan "Adabiyot" dasturi asosida qayta ishlendi.

O'quvchilarning iqtidorini aniqlash, qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirish, ularning qiziqish va moyilliklarini hisobga olib, tabaqalashtirib bilim berish ta'lim tizimidagi asosiy masalalardandir.

Adabiyot o'quv fani bo'yicha ixtisoslashtirilgan dastur bilan ishlash, avvalo, o'quvchining qobiliyati, iqtidori va fanga bo'lgan qiziqishlari o'rganilgan holda amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan dasturda o'rganishga taqdim etilgan asarlarni o'qish, o'z darajasida tahlil qilish, asar qahramonlari xatti- harakatiga baho berish bilan birga, mashg'ulotlarning amaliy jihatlari, e'tibor berish, ya'ni matn ijod qilish, taassurot yozish, taqdim etilgan har qanday mavzuda ogzaki va yozma ravishda hikoya, ma'ruza, insho va o'zgalarning tuyg'lari va kechinmalarini sinchkovlik bilan kuzatib, batafsil tavsifnoma yoza olish va x. k. malakalarini shakllantirish ko'zda tutiladi.

Adabiyot inson ma'naviy dunyosini shakllantirish va axloqiy qiyofasini belgilashda eng samarali ta'sir ko'rsata oladigan san'at turidir. O'quv predmeti sifatida adabiyotning o'ziga xosligi shundaki, uning o'rganish obyekti so'z san'ati namunasi bo'lmish badiiy asarlardir. Maktabda adabiyot o'qitishning **bosh maqsadi** milliy va jahon adabiyotining sara namunalari bilan tanishgan, yuksak estetik didga ega, axloqan barkamol, aqlan yetuk, o'zganing tuyg'ularini anglaydigan, o'z qarashlariga ega va xatti- harakatlariga javob bera oladigan sog'lom e'tiqodli, komil shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishdan iboratdir. Adabiyot o'qitishning **vazifalarini**: o'quvchilarda badiiy adabiyotga mehr uyg'otish, ularni ko'rkam asarlarni o'qiydigan, tushunadigan va tahlil eta oladigan, badiiy matn to'g'risidagi fikrlarni og'zaki va yozma tarzda to'g'ri hamda erkin ifodalay oladigan qilib tarbiyalashdan iborat deb belgilaydi.

Maktab adabiy ta'limining **mazmuni** uning maqsad va vazifalaridan kelib chiqadi. Ma'lumki, ta'limning mazmuni o'quv rejasi, dasturi, darsliklar, o'quv qo'llanmalari hamda turli didaktik vositalarda namoyon bo'ladi. Ta'lim mazmunini aks ettiruvchi o'quv dasturi va darsliklarda o'zbek va jahon

adabiyotining badiiy yuksak namunalari hamda o'quvchilarda o'qilgan asarlarni tushunish, tahlil qilish malakalarini shakllantirish uchun zarur bo'lgan nazariy ma'lumotlar, ayrim murakkab badiiy matnlar yuzasidan bitilgan metodik maqolalar hamda matnning estetik jozibasi va badiiy qudratini ochishga qaratilgan savol-topshiriqlar adabiyot o'quv fanining mazmuni sifatida aks etadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» vazifalari bajarila boshlashi bilan milliy o'qitish tizimi tubdan yangilandi. Umumiy o'rta ta'lim tushunchasining mohiyati va yoshlarning majburiy ta'lim olish uchun ajratiladigan vaqt miqdori keskin o'zgardi. Milliy o'qitish tizimidagi tub yangilanishlar mavjud ta'lim mazmunining ham o'zgartirilishini taqozo etmoqda. Shu sababdan umumiy ta'limning eng zarur va nozik yo'nalishi bo'lmish adabiyot o'qitishni yo'lga qo'yish hamda unga zarur bo'lgan o'quv vositalarini yangilash dolzarb vazifaga aylandi.

Ushbu o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan tayanch o'quv reja asosida yaratildi va fanni chuqurlashtirib o'qitish maqsadida unga 1 soatdan qo'shildi. Qo'shilgan soatlarda o'rganish uchun yozuvchi va shoirlarning ijodidan yangi namunalar hamda ayrim adiblar va ularning asarlari kengaytirib o'rganilishi ko'zda tutildi.

Adabiyot darslarida matn ustida ishlash adabiyot o'qitishdagi eng asosiy mashg'ulot ekanligi ko'zda tutildi. Matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlari, tafakkur darajalari, ruhiy rivojlanish bosqichlarining holatlarini hisobga olish yo'llari belgilandi.

Badiiy asarlar o'qituvchi yoki o'quvchilar tomonidan ko'pincha to'liq, ba'zan parcha holda o'qilishi va faqat matnga tayangan holda tahlil qilinishi lozim. Badiiy asarlar bevosita o'quvchilarning o'zlari tomonidan idrok etilishiga katta e'tibor berilishi kerak. O'quvchini o'qitishga emas, balki uni o'qimasa turolmaydigan ruhiy-pedagogik holatga keltirishga urinish lozim.

Adabiyot o'qituvchilari badiiy asar tahlilining rang-barang usullaridan foydalana olishlari kerak. O'qituvchi muayyan asar tahlili yuzasidan sinfdagi barcha o'quvchilarning bir xil xulosa chiqarishiga intilmasligi, hatto, bunga yo'l qo'ymasligi lozim. Ayni bir badiiy hodisadan o'quvchilarning turlicha estetik-axloqiy ma'no topishlariga imkon berish kerak. O'qituvchi biror badiiy asarni tahlil qilishda muayyan sinfdagi o'quvchilarning rivojlanish darajalari, ruhiy holatlari, shuningdek, asarning ta'sirchanlik xususiyatlarini hisobga olgan holda ish ko'rishi zarur. Tahlilda asosiy e'tibor asarning estetik qimmatini ko'rsatishga, asar badiiyligini ta'minlagan omillarni idrok etishga qaratilish darkor. Puxta va chuqur estetik tahlilgina o'rganilayotgan asarning o'quvchilar hissiyotiga ta'sirini ta'minlaydi. Hissiyotga ko'rsatilgan ta'sir, albatta, shaxsning ma'naviy sifatiga evriladi.

Mazkur bosqichda o'quvchilarda badiiy asarga barqaror qiziqish uyg'otish, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish va adabiy asarni chuqurroq tushunishga yordam beradigan darajada nazariy ma'lumotlar berish adabiyot o'qitishning asosiy vazifalari sanaladi.

Dastur materiallarini joylashtirishda soddadan murakkabga tomon borish prinsipiga amal qilindi. Shuningdek, o'quvchilarda milliy adabiyotning ko'lami haqida umumiy tasavvur paydo qilishga ham e'tibor qaratildi.

Badiiy adabiyotga yaqinlik sinfdagi mashg'ulotlar bilangina tugamasligi kerak. O'qituvchilar, imkon qadar, bir qancha asarlarning sinfdan tashqarida, o'quvchilarning bo'sh vaqtlari hisobiga o'qib chiqilishiga erishishlari va o'qilganlar yuzasidan har o'quv choragida kamida bir marta yalpi suhbat o'tkazib turishlari lozim. Sinfdan tashqari o'qishni uyushtirishda o'qituvchi tashabbuskor bo'lmog'i, yangi paydo bo'lgan, o'quvchilar yoshiga munosib bo'lgan va badiiy yuksak asarlarni bolalarga tavsiya etishdan cho'chimasligi darkor. Sinfdan tashqari o'qilgan yangi asarlar o'quvchilarni ijodkorlikka undaydi, bugungi voqelik tufayli tug'ilgan hayotiy savollarga javob topishga o'rgatadi.

Dasturda bajariladigan og'zaki va yozma ish turlari badiiy asarlarni o'rganishdan kelib chiqadi va badiiy asarlarni tahlil etishga yordam beradi. Ular o'quvchilarni mantiqiy va obrazli fikrlashga o'rgatadi, bolalarning tasavvur olami va estetik hissiyotlarini rivojlantiradi, badiiy asarlarni tahlil qilish malakasini shakllantiradi. Og'zaki va yozma ishlar katta ma'rifiy ahamiyatga ham egadir. Bu ishlarni bajarish asnosida o'quvchilarning o'zbek tili predmeti bo'yicha egallagan bilimlari ko'nikmaga, ko'nikmalari malakaga aylanadi. Savodli og'zaki va yozma nutq shakllantiriladi.

Ushbu dasturda o'qituvchilar tashabbuskorligini uyg'otish, ularning erkin fikrlashlariga sharoit yaratish hamda adabiy ta'limda o'lkashunoslik materiallaridan foydalanishga imkon berish maqsadida har bir sinfdagi adabiy materiallarning istalgan 10-15 foizini mahalliy mintaqaga talabi, o'qituvchi va o'quvchilarning xohishlariga muvofiq tarzda istagan adabiy siymoning **istalgan badiiy yuksak asari** bilan almashtirish mumkin. Buning uchun dasturda bo'lmasada, o'qituvchi o'quvchilarga o'rgatilishi zarur deb hisoblagan asarni yillik mavzuli o'quv rejasiga kiritishi va uni qaysi asar o'rniga o'tishni mo'ljallayotganini ko'rsatishi kerak. Dasturda zarurat taqozosi bilan adabiy mavzularni o'rganishga ajratilgan soatlar miqdori ham (umumiy soatdan chiqmagan holda) o'zgartirilishi mumkinligi ko'zda tutilgan.

Ushbu dastur serbo'yoq o'zbek nazmini teran anglash uchun o'rgatiladigan she'rlar, imkon qadar, yod olinish lozimligini ko'zda tutadi. Shu bois yodlanishi zarur bo'lgan asarlar ro'yxati berilgan. Badiiy matnni yod olishni talab qilish estetik va ma'rifiy ahamiyatidan tashqari, o'quvchilar xotirasini mustahkamlashi jihatidan ham foydalidir. Xullas, ushbu dasturda mustaqil fikrga ega, badiiy so'zdan ta'sirlanadigan va uni anglaydigan erkin ruhli shaxslarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan tadbirlar tavsiya etilgan.

Dastur **V sinf (136 soat)**

Adabiyot - soʻz sanʼati (1 soat).

Adabiyotning soʻz sanʼati ekanligi. Uning estetik, tarbiyaviy, taʼlimiy ahamiyati. Badiiy soʻz qudrati. Soʻzning ifoda imkoniyatlari. Soʻz orqali inson ruhiy olami, his-tuygʻulari hamda tabiat manzaralarining tasvirlanishi. Adabiyot va maʼrifat, adabiyot va maʼnaviyat, adabiyot va tarbiya. Badiiy adabiyotning turlari. Mumtoz hamda zamonaviy shoir va yozuvchilarning asarlari misolida adabiyotning soʻz sanʼati ekanligini namoyish etish.

HIKMAT DURDONALARI

Maqollar. (1 soat).

Maqollar xalq ogʻzaki adabiyoti namunasi sifatida. Maqollarda xalq milliy tafakkuri qaymogʻining aks etishi. Maqollarning shakliy tuzilishi, ularga xos qisqalik, taʼsirchanlik, teranlik kabi xususiyatlar haqida maʼlumot. Maqollarning kishilarni ezgu insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash vositasi ekanligi. Maqollarning mavzu doirasi. Vatanparvarlik, doʻstlik, ilm va kasb-hunar, oila, odob, tarbiya haqidagi maqollar.

Nazariy maʼlumot: Xalq ogʻzaki ijodi haqida tushuncha.

Topishmoqlar. (1 soat)

Topishmoqlarning oʻziga xos xususiyatlari. Ularning mavzu doirasi, Topishmoqlardagi tasvirning oʻziga xosligi. Topishmoqlar da yashirilgan predmet va uni topish usullari

Nazariy maʼlumot: Maqol va topishmoq tushunchalari.

Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadislar. (3 soat).

Imom Buxoriy va uning «Al-jomeʼ as-sahih» («Ishonchli toʻplam») hamda «Al-adab al-mufrad» («Adab durdonalari») nomli hadis toʻplamlari haqida maʼlumot. Paygʻambarimiz Muhammad alayhissalom Hadislarining inson maʼnaviyati yuksalishida tutgan oʻrni. Axloq-odobga oid hadislarining oʻziga xos xususiyatlari. Ularda ezgu insoniy fazilatlarining ixcham voqeiy hikoyalar asosida

ifodalanishi. Hadislarning millatimiz axloqiy qadriyatlarini shakllantirishdagi oʻrni.

Komil insonning maʼnaviyatini shakllantirishda hadislarning oʻrni. Hadislarda bildirilgan fikrlar va oʻquvchi tabiatidagi sifatlar orasidagi aloqadorlik. Mehribonlik, bagʻrikenglik, maʼrifatga chanqoqlik, odillik singari fazilatlarining ahamiyati xususida. Hadislar bilan oʻzbek xalq maqollari va buyuk allomalar hikmatli soʻzlarining mushtarak jihatlari.

Nazariy maʼlumot: Hadis.

Ezop. «Yovvoyi echkilar», «Kiyik bilan tokzor», «Boʻri bilan laylak», «Eshak bilan baqalar», «Ustiga tuz yuklangan eshak», «Burgut, zagʻcha va choʻpon» masallari (3 soat).

Qadimgi yunon masalchisi Ezop hayoti toʻgʻrisidagi rivoyatlar. Ezop masallarining insoniyat maʼnaviyati, maʼrifiy tafakkuridagi oʻrni. Masallarda ezgulik, saxiylik, olijanoblik singari gʻoyalarning ilgari surilgani. «Yovvoyi echkilar» masalida doʻstga sadoqat, «Kiyik bilan tokzor» masalida yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarish, «Boʻri bilan laylak» masalida doʻst-dushmanning kimligini farqlash lozimligi, boshqa masallarda ham shunga oʻxshash hayotiy masalalar ramziy obrazlar orqali talqin etiladi.

Masalchilikning shakllanishi va taraqqiyotida Ezop ijodining ahamiyati. Ezop masallarining tarbiyaviy roʻli.

Nazariy maʼlumot: Masal haqida tushuncha.

ERTAKLAR OLAMIDA

«Uch ogʻa-ini botirlar» ertagi (3 soat).

Ertakning xalq ogʻzaki ijodining qadimgi va keng tarqalgan janri ekanligi. oʻzbek xalq ertaklarining oʻziga xos xususiyatlari. «Uch ogʻa-ini botirlar» ertagining betakror badiiy olami. Unda xalq badiiy dahosi, fantaziyasining yorqin namoyon boʻlganligi.

«Susambil» ertagi (2 soat).

Ertakdagi jonivorlar obrazining mohiyati. Susambil adolat qaror topgan va hamma baxtli yashaydigan afsonaviy yurtning timsoli sifatida. Ertakdagi til, ramz va badiiy ifoda xususiyatlari.

Nazariy maʼlumot: Ertak haqida tushuncha.

«Ota vasiyati» ertagi. (2 soat)

Ertakning syujeti va kompozitsiyasi. Uning asosiy qahramonlari. Ota va oʻgʻillar: ikki katta akadagi manfaatparastlik, ochkoʻzlik va xudbinlikning qoralanishi. Kenja oʻgʻil qiyofasida otalar oʻgitiga sadoqat, mehribonlik, mardlik, tantilik xislatlarining ulugʻlanishi.. Ertakdagi sehrli vositalar obrazi. Ertaknint asosiy gʻoyaviy va badiiy xususiyatlari. Ertak qahramonlarining oʻziga xosligini koʻrsatishda dialogning oʻrni.

Nazariy maʼlumot: sehrli ertaklar

Hamid Olimjon. «Oygul bilan Baxtiyor» dostoni (4 soat).

Hamid Olimjon hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

Uning ertak-dostonlari. «Oygul bilan Baxtiyor» dostoni syujeti va obrazlar tasviridagi o'ziga xoslik. Dostondagi asosiy qahramonlar. Dostonda ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash tasviri. Asarning badiiy xususiyatlari. Asar tilining sodda va ravonligi.

Nazariy ma'lumot: Ertak-doston haqida tushuncha.

Maqsud Shayxzoda. «Iskandar Zulqarnayn» dostoni (3 soat).

Shayxzodaning hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot.

XX asr o'zbek shoirlari ijodida she'riy ertak-dostonlar yaratish tajribasi. «Iskandar Zulqarnayn» ertak-dostoni va uning muallifi haqida ma'lumot. Iskandarning ikki shoxi borligi haqidagi rivoyat va uning dostonidagi o'ziga xos talqini. Iskandar, Sartarosh va Cho'pon obrazlari. Pinhon tutilgan mudhish sir va uning Cho'pon yasagan nay orqali oshkor bo'lishi. Nayning ramziy mohiyati. Dostonidagi rivoyatdan chiqadigan muhim saboq - tarixda pinhon tutilgan qabih ishlarning yopiqligicha qolib ketmasligi, baribir qachondir oshkor bo'lishi muqarrar ekanligi.

Abdurahmon Jomiy. Hikoyatlar (3 soat).

Abdurahmon Jomiyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. «Bahoriston»dagi ayrim hikoyatlar tahlili. Ularda mardlik, to'g'rilik, kamtarlik, kamso'zlik, donolikning ulug'lanishi. «Abulhasan Qushanjiy», «Yusuf ibn Husan Roziy», «Iskandar Rumiylahongirlik davrida», «Iskandardan so'rganlarida...», hikoyatlarining tahlili.

Jonatan Svift. «Gulliverning sayohatlari» romanidan parcha (4 soat).

Adib haqida qisqacha ma'lumot. «Gulliverning sayohatlari»ning ma'juziy asar ekanligi. Unda asar qahramonlari tabiatidagi ijtimoiy illatlarning kulgiga olinishi. Asarda voqealar xayoliyligi va xarakterlar tasviri realligi o'rtasidagi nomutanosiblik mavjudligi hajviy roman umr uzoqligini ta'minlagan asosiy omil ekanligi. Asar obrazlari tabiatidagi illatlarning hayotiy asosi va ularning muallif zamondoshlariga daxldor jihatlari.

A.S. Pushkin «Shoh Saltan haqida ertak» (3 soat).

Ijodkor haqida qisqacha ma'lumot. Ertakda mehr va mehrsizlik, yaxshilik va yomonlik, to'g'rilik va egrilik hamda ularning oqibati qanday natijaga olib kelganligi. Yaxshilik va ezgulik tantanasining ertakda mahorat bilan ifodalanganligi

Hans Xristian Andersen. «Bulbul» ertagi (3 soat).

Ertakchi-yozuvchi haqida ma'lumot.

«Bulbul» ertagida ezgulik va yomonlik o'rtasidagi kurashning ifodalanishi. Ertakdagi qahramonlar obrazi va ular o'rtasidagi munosabatlar tasviri. Ertakda

ezgulik va go‘zallikning buyuk yaratuvchi kuch sifatida ulug‘lanishi. Ertakning badiiy go‘zalligi.

BOLALIKNING BEG‘UBOR OLAMI

Abdulla Qodiriy. «Uloqda» hikoyasi (2 soat).

Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodi haqida ma’lumot.

«Uloqda» hikoyasining XX asr boshlaridagi o‘zbek xalqi hayotidan olinganligi. Hikoyaning g‘oyaviy mazmuni. Hikoyadagi obrazlar. Asar voqealari tasvirining hikoyachi bola tilidan, uning dunyoqarashi orqali berilishi. Tasvirda badiiy joziba va samimiylikka erishilganligi. Asarda adib yashagan tarixiy muhit tasviri. Hikoyada o‘zbek bolalariga xos jihatlarning aks ettirilganligi. Hikoya haqida tushuncha.

Nazariy ma’lumot: Hikoya haqida tushuncha

Hamza Hakimzoda Niyoziy. She’rlar (3 soat).

Shoir haqida qisqacha ma’lumot. Shoir she’rlarida yolg‘on bilan rost o‘rtasidagi farqning ko‘rsatilishi. Yolg‘onchi albatta o‘z jazosini olishi muqarrarlighi tasviri. “Mevalar mojarosi” she’rida kibrning ramziy timsollarda ifodalanishi

Oybek. «Fonarchi ota», «Bolaning ko‘ngli podsho» hikoyalari (3 soat).

Yozuvchining hayoti va ijodi haqida ma’lumot.

«Fonarchi ota» hikoyasida otaning oliyjanob insoniy fazilatlar va sho‘x bolalar sajiyasining haqqoniy ifodalanganligi. Bolalarning fanorchi otaga bo‘lgan munosabatlarining o‘zgarib borishi va bu holning yozuvchi tomonidan katta mahorat bilan ifodalanganligi. Hikoyaning tarbiyaviy ahamiyati.

«Bolalik xotiralarim» qissasida adibning bolalik va o‘smirlik davrining ifodalanishi. qissadan olingan parchada o‘tgan asr boshlarida yashagan bola va bobo obrazlarining haqqoniy tasviri. Har ikkala asarda yozuvchi uslubiga xos samimiyatning badiiy ta’sirchan ifodalanganligi. Hikoyalarning estetik-tarbiyaviy-ahamiyati.

Mirkarim Osim. «Yoshlik ayyomining ilk bahori», «Yazd cho‘li», «Qushlar tili» hikoyalari («Zulmat ichra nur» qissasidan (3 soat).

Yozuvchining hayoti va ijodi haqida ma’lumot.

«Zulmat ichra nur» qissasidagi «Yoshlik ayyomining ilk bahori», «Yazd cho‘li» va «Qushlar tili» deb nomlangan lavhalarda Alisherning bolalik chog‘lariga oid ibratli voqealarning tasvir etilgani. Undagi kitobga bo‘lgan muhabbat, xayolot olamining kengligi, muhofazasining teranligi. Mazkur hikoyalarning ma’rifiy va tarbiyaviy ahamiyati.

G‘afur G‘ulom. «Mening o‘g‘rigina bolam» hikoyasi (3 soat).

G‘afur G‘ulomning hayoti va ijodi haqida ma’lumot. «Mening o‘g‘rigina bolam» hikoyasida Birinchi jahon urushi davridagi xalq hayotining aks ettirilishi. Hikoyada bola, kampir, o‘g‘ri obrazlarining haqqoniy tasvirlanganligi. Kampir

bilan o'g'ri o'rtasidagi suhbat; suhbatdagi tabiiylik va samimiylilikning namoyon bo'lishi. Hikoyadagi obrazlarda o'zbek milliy ruhining tiniq aks etganligi.

Usmon Nosir. She'rlar (3 soat)

«Yur, tog'larga chiqaylik», «Yo'lchi», «Bolaligimga», «Yoshlik», «Yurganmisiz birga oy bilan», «Gulzor – chaman...» she'rlari.

Matn ustida ishlash. She'rlardagi shakl va ma'no uyg'unligi. Ularda poetik fikrning yangicha ifodasi. Ifodalarning tabiiyligi va ta'sirchanligi. Ta'sirchanlikni yuzaga chiqarayotgan omillar tahlili.

Nazariy ma'lumot: She'r haqida tushuncha

Asqad Muxtor. She'rlar (2 soat).

Asqad Muxtorning hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot.

A.Muxtor she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari. She'rlarda yashashdan maqsad xalq va jamiyat oldidagi mas'uliyatni his etish va o'zidan yaxshi iz, yaxshi nom qoldirish, degan g'oyaning badiiy mujassamlanishi. A.Muxtor she'rlaridagi fikr va tuyg'u, uyg'unligidagi o'ziga xoslik. She'rlarning badiiy xususiyatlari.

O'.Hoshimov. «Dunyoning ishlari» qissasidan (4 soat).

O'tkir Hoshimovning hayoti va ijodi haqida ma'lumot. «Dunyoning ishlari» qissasi muallifning o'z onasi haqidagi xotiralardan iborat ekanligi. qissadan olingan boblarda Ona, o'g'il va boshqa obrazlarning jonli tasvir etilgani. qissaning «Alla», «Iltijo» boblarida insonning Ona oldidagi farzandlik burchining, hech qachon to'lab bo'lmas qarzning ta'sirchan ifodalanganligi. Onani qo'msash, uni sog'inish, uning hech kim bilan almashtirib bo'lmaydigan mehri oldida qarzdorlik tuyg'usining ifodalanishi. «Oq, oydin kechalar», «Tush», «Gilam paypoq» fasllarida Ona qalbidagi cheksiz mehr-muruvvat tuyg'usining samimiy ifodasi. Asarning badiiy xususiyatlari.

Mirtemir. «Bulut», «Shudring», «To'rg'ay», «Baliq ovi», «Qishlog'im» she'rlari (3 soat).

Mirtemir hayoti va ijodi haqida ma'lumot. Mirtemir she'rlarida ona yurt tabiatidagi tengsiz go'zalliklarning tasvirlanishi. Shoir she'rlarida yurt tabiatiga mahliyolik, undan faxrlanish hissining bo'rtib turishi.

Mirtemir she'rlarida tabiatga mehr-muhabbatning ifoda etilishi. «To'rg'ay» she'rida ana shu cho'l qushiga xos xususiyatlarning yorqin tasvirlanganligi. «qishlog'im» she'rida o'zbek xalqiga xos ezgu sifatlarning o'ziga xos yo'sinda aks ettirilishi. She'rlarning badiiy xususiyatlari va ifoda tarzi.

A.Sent-Ekzyuperi. «Kichkina shahzoda» qissasidan (4 soat).

Yozuvchi haqida ma'lumot. Ertak-qissada bolalar olamining mahorat bilan tasvir etilishi. Unda abadiyat va foniylilik, hayot, muhabbat va o'lim muammosining o'ziga xos tarzda tasvir etilishi. Kichkina shahzoda obrazi. Ertakdagi boshqa obrazlar va ular o'rtasidagi munosabat. Ertakda bolalar ruhiy olamiga xos xususiyatlarning yorqin ifodalanganligi. Ertakning tarbiyaviy ahamiyati.

MUMTOZ ADABIYOT BO'STONI

Alisher Navoiy. «Hayrat ul-abror» dostonidan (6 soat).

Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida ma'lumot. «Hayrat ul-abror» asari buyuk shoirning «Xamsa» asarining birinchi dostoni ekanligi. Dostonda chin va yolg'on so'zning solishtirilishi. To'g'rilikning qanchalar azob bilan bo'lsa-da, o'olib kelishi, yolg'on va egrilikning oxir-oqibat engilishi Sher bilan Durroj qismati misolida aks ettirilgani.

Dostonning o'ninchi maqolotidan olingan hikoyatlarning ramziy ma'nosi. Aslida inson ma'naviy qiyofasini aks ettiruvchi hikoyatlarning badiiy va axloqiy xususiyatlari.

“Tarixi muluki Ajam” asaridan olingan “No'shiravoni odil hikoyati”da adolat va xalollik g'oyalarining ifodalanganligi. Navoiy asarlarining ahamiyati.

Bobur. Ruboiylar (3 soat).

Boburning hayoti va ijodi haqida ma'lumot. Bobur – ruboiynavis. Shoirning «Har kimki vafo qilsa...», «Kim yor anga ilm tolibi...», «Ko'pdin berikim...», «Tole yo'qi jonimg'a...» ruboiylariga xos xususiyatlar. Ruboiylarda muallif hayoti, shaxsiyati, kechinmalari, orzulari, armonlari va ularning betakror tarzda tasvir etilgani. Ruboiylarda shoirga xos samimiyat va rostgo'ylikning aks etishi. Shoirning «Ko'rdum», «Kishi» radifli ruboiylarida hayot haqiqatining aks etishi. «Ko'ngli tilagan murodig'a...», «Tole yo'qi...» va boshqa ruboiylarida Bobur tarjimai holiga doir unsurlarning yaqqol namoyon bo'lishi. Ruboiylar matni ustida ishlash. Ruboiylarda vatan, yurt sog'inchining tasviri, Ruboiyda so'z va g'oya birligi. Ularning badiiy xususiyatlari.

Nazariy ma'lumot: Ruboiy haqida tushuncha.

Muqimiy. «Sayohatnoma» asari (4 soat).

Muqimiyning hayoti va ijodi haqida ma'lumot. Muqimiy «Sayohatnoma» sining janr xususiyatlari. Asarning o'z davrida mashhur bo'lganligi. «Sayohatnoma» da Farg'ona vodiysi aholisiga xos hayot manzaralarining berilishi. Odamlarga xos nuqson va illatlarning kulgi vositasida ifoda etilganligi. Asarning hajviy yo'nalishi. Obrazlar tasviri. «Sayohatnoma» tilining jozibasi.

«Sayohatnoma»ning «Qo'qondan Isfaraga» qismida shoirning dunyo haqidagi kuzatishlarining aks ettirilishi. Unda Rafqon, Yakkatut, Isfara singari manzillardan olingan taassurotlarning tasvir etilganligi.

Nazariy ma'lumot: Sayohatnoma haqida tushuncha.

Sa'diy Sheroziy. «Guliston» asari (3 soat).

Sa'diy Sheroziy haqida ma'lumot. «Guliston» asarining badiiy-ma'rifiy xususiyatlari. «Guliston» - o'zbek didaktik adabiyotining etuk namunasi sifatida. Sa'diy hikoyatlarida ta'lim-tarbiya masalasining hal qiluvchi masala sifatida qo'yilishi. Ularda to'g'ri so'z, qanoatli, mehnatkash, halol kishilar taqdirining aks ettirilishi. Dostondagi she'riy lavhalar va hikoyatlarning hayotiy-didaktik asosi. Dostonning o'zbek adabiyoti rivojidagi ahamiyati.

VATANNI SEVMOQ IYMONDANDIR

Abdulla Avloniy. «Vatanni suymak» («Turkiy Guliston yoxud axloq» asaridan) lavhasi, «Vatan» she'ri (2 soat).

A.Avloniy hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot.

«Turkiy Guliston»dagi she'riy va nasriy lavhalarda Avloniyning go'zal odob-axloqqa, yaxshilikka mayl, yomonlikdan hazar, el-yurtga, Vatanga muhabbat tuyg'ularining ifoda qilinganligi. «Vatanni suymak» asarida inson tug'ilib o'sgan zaminning qadr-qimmatini sodda bir uslubda tushuntirib berganligi. Bu g'oyaning Vatan haqidagi nasriy lavha pafosi bilan uyg'unligi.

Erkin Vohidov. «Nido» she'ri (4 soat)

Shoirning hayoti haqida qisqacha ma'lumot. «Nido»dostonida urushning insoniyat boshiga tushgan eng ulug' falokat sifatida aks ettirilganligi. Dostonda bola tabiatining g'oyat nozik jihatlari haqqoniy va ta'sirchan tasvirlanganligi. Doston nomining ramziy ifodasi. Uning badiiy xususiyatlari.

Nazariy ma'lumot: Doston (poyema) haqida tushuncha.

Abdulla Oripov. «O'zbekiston» she'ri (3 soat).

A.Oripov hayoti va ijodi haqida ma'lumot. «O'zbekiston» qasidasida ona yurt o'tmishining g'oyat ta'sirli va millat tarixi bilan uyo'un holda tasvirlanganligi. Asarda buyuk ajdodlarni ulug'lashdagi samimiyat. Shoirning Vatanga bo'lgan muhabbatining yorqin ifodalanishi. She'rning badiiy xususiyatlari.

Hamza Imonberdiyev. «Ohu», «Sehrli mehr» she'rlari (3 soat).

Shoirning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Uning she'rida go'zallik va ezgulik timsoli bo'lmish ohuning hayotiga tahdid etib, uni qasoskorga aylantirgan odamlar va jonivorlar munosabati tasviri. She'rlarning o'ta samimiy va ishonarli tasvirlanganligi.

Nodar Dumbadze. «Hellados» hikoyasi (4 soat).

Gruzin adibi N.Dumbadzening hayoti va ijodi haqida ma'lumot. Adibning qator roman, qissa va hikoyalarining o'zbek tiliga tarjima etilganligi. «Hellados» hikoyasida bolalar hayoti, ular orasidagi murakkab munosabatlar tasviri. Asardagi vatanparvarlik tuyg'usining o'ziga xos tarzda ifoda etilishi. Yanguli va Jamol obrazlari. Ularning o'xshash va farqli jihatlari tasviri. Bu obrazlarning xarakter darajasiga ko'tarilganligi. Yanguli tabiatida jangarilik, olijanoblik hamda vatansevarlik tuyg'ularining mavjudligi.

Asarlarni o'rganish uchun - 98

soat.

Yozma va og'zaki ijodiy ishlar uchun - 34
soat.

Takrorlash uchun - 4 soat.

O'quvchilar yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

Maqol va topishmoqlardan namunalar.

Hadislardan namunalar

Bobur. Ruboiylardan namunalar.

Muqimiy. «Sayohatnoma» asaridan parcha.

H.Olimjon. «Oygul bilan Baxtiyor» dostonidan parcha.

Mirtemir. «Bulut», «Shudring» she'rlari.

Usmon Nosir. «Yur, too'larga chiqaylik», «Yurganmisiz birga oy bilan» she'rlari.

E.Vohidov. «Nido» dostonidan parcha.

A.Oripov. «O'zbekiston» she'ridan parcha.

VI sinf (102 soat)

Ma'naviyat xazinasini (1 soat). Badiiy adabiyot va yoshlar ma'naviyati. Adabiy asarlarning insonning ma'naviy dunyosini shakllantirishdagi o'rni. Komil inson tarbiyasida adabiyotning ahamiyati. Axloq-odob bilan badiiy adabiyot o'rtasidagi mushtaraklik. Adabiyotning *odob* so'zidan olinganligi. Xalq va mamlakatning ijtimoiy-madaniy ravnaqida badiiy adabiyotga muhabbatning muhim ahamiyatga ega ekanligi. Millatning o'zligini tanish jarayoni va adabiyot.

Bola – uchqur xayol egasi

G'afur G'ulom. «Shum bola» qissasidan (4 soat).

«Shum bola» qissasida urush kulfati, hayotdagi ayrim shafqatsizliklarning topqir, hozirjavob bola obrazining hajviy talqin etilishi. Hayotiy hodisalarga kulgi nazari bilan qarash, qissada yozuvchining tarjimai holiga doir unsurlarning ifodalanishi va bu holning yozuvchi ijodiy uslubiga xos xususiyat ekanligi. Asar tilidagi xalqchilik, jamiyatning turli tabaqalariga xos jihatlarning mohirona tasvir etilganligi. Qissa – yumoristik asar sifatida.

Nazariy ma'lumot: Qissa haqida tushuncha.

Turob To'la. «Do'nani» hikoyasi («Etti zog'ora» qissasidan) (3 soat).

Turob To'laning hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot.

Adibning «Etti zog'ora» qissasida bolalik xotiralari bilan bog'liq voqealarning ifodalanganligi. «Do'nani» hikoyasi. Asardagi hikoyachi-bola obrazi. Uning Do'nani laqabli otga bo'lgan muhabbati va bu muhabbat tasviri orqali bola ruhiy olamiga xos bokiralik, samimiylilik, sadoqat tuyg'ularining tasvir etilganligi. Hikoyaning tarbiyaviy ahamiyati.

X.To'xtaboev. «Sariq devni minib» (4 soat)

To'xtaboevning hayoti va ijodi to'g'risida qisqacha ma'lumot.

Roman qahramoni - 6-sinf o'quvchisi Hoshimjon sarguzashtlarining obraz tabiati bilan uyg'unligi. Hoshimjondagi yalqovlik va intizomsizlik qusurlarining qahramon taqdirini nojoiz yo'llarga solib yuborganligi va bu holning ta'sirchan ifodalanishi. Roman qahramoni tabiatidagi quvnoqlik, topqirlik, hozirjavoblik, qo'nimsizlik singari xislatlarning asar voqealari rivojida o'rni. Qalpoqcha yordamida «ulg'aygan» va turli ixtisoslarni «egallagan» Hoshimjonning har safar

chuv tushishi sabablari, qahramon tabiatining yoqimli va noxush jihatlar hamda ular o'rtasidagi aloqadorlik. Asar tilining o'ziga xosligi.

Nazariy ma'lumot: Sarguzasht asar haqida tushuncha.

Janni Rodari. «Rim ertaklari» (4 soat).

Adib haqida ma'lumot. Janni Rodarining «Rim ertaklari» va «Uchtadan oxiri bor ertaklar» turkumi to'o'risida. Bir xil ertakning uch xil yakunini topish jahor ertakchiligidagi yangilik ekanligi. «Hurishni eplolmagan kuchukcha» ertagidagi kuchukcha obrazining uch xil yakundagi holati tasviri. Ertakning uchinchi tugashida kuchukchaning sevinib ketishi sababi. Ertakdan kelib chiqadigan ijtimoiy ma'no. Ertakning to'rtinchi tugashini topishni o'quvchilarga vazifa qilib berish va natijani sinfda muhokama qilish.

KECHAGI KUN SABOQLARI

Muqimiy. «Tanobchilar» hajviyasi (3 soat).

Muqimiyning hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

Muqimiyning «Tanobchilar» hajviyasida foydaxo'r, imonsiz va yolg'onchi kimsalarning tasvir etilishi. Hajv qahramonlari Sulton Ali va Hakimjonning da'volari bilan mohiyatlari o'rtasidagi keskin ziddiyat tufayli tug'iladigan hajviy kulgining kuchi. Muqimiy asarlarining xalqchilligi, soddaligi va ta'sirchanligi.

Nazariy ma'lumot: Hajviya haqida tushuncha.

Abdulla Qahhor. «Bemor» hikoyasi (2 soat).

Yozuvchining hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

Hikoyachilikda A.Qahhor badiiy mahoratining namoyon bo'lishi. «Bemor» asarining adib hikoyachiligida tutgan o'rni. Uning badiiy xususiyatlari. Hikoya ohangi. Asardagi Sotiboldi, bemor va qizcha obrazlari. «Bemor» ilojsizlik, qashshoqlik insonni qanchalar xo'rlashi mumkinligini badiiy ifodalagan asar sifatida. Bemor obrazida mehribon onaga xos xususiyatlarning ta'sirli aks ettirilganligi.

Odil Yoqubov. «Muzqaymoq» hikoyasi (3 soat).

Adib hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

«Muzqaymoq» hikoyasida yolg'on e'tiqod tufayli bola ruhiyatida ro'y bergan ma'naviy emrilishlarning haqqoniy aks ettirilganligi. Noto'g'ri e'tiqod, ko'r-ko'rona siyosiy aqidaparastlik do'stdan dushman, halol odamdan tuhmatchi yasashi mumkinligining hikoyada ishonarli tasvir etilganligi. Hikoyachi xotirasida chuqur iz qoldirgan bolalik davri fojialarining ko'rsatilishi. Bolaning nog'oralar marshini eshitgandagi holatining mahorat bilan ko'rsatilganligi. Hikoyada odam tuyg'ularini biryoqlama tushunish va tushuntirish mumkin emasligining aks etganligi.

Erkin Vohidov. «O'zbekim» qasidasi. (3 soat)

Erkin Vohidov hayoti va ijodi to'g'risida qisqacha ma'lumot. «O'zbekim» qasidasi matni ustida ishlash. Qasida - ko'p asrlik o'zbek xalqi tarixining o'ziga xos poetik ifodasi va badiiy talqini sifatida. She'rda o'zbek millatiga mansublikdan iftixor tuyg'ularining samimiy tasvirlanganligi. Qasidaning milliy o'zlikni anglashdagi, xalq milliy tafakkurining shakllanishidagi ahamiyati.

“Kamtarlik” she'ri. Matn ustida ishlash. She'rdagi obrazlar tizimi, choynak va piyola obrazlari talqini.

Nazariy ma'lumot: Qasida haqida tushuncha.

O'tkir Hoshimov. «Urushning so'nggi qurboni» hikoyasi (3 soat).

Asarda qiyinchilik inson ma'naviyatini sinovdan o'tkazish vositasi ekanining ko'rsatilganligi. Hikoyada urush yillarining haqqoniy tasvirlanganligi. Yo'qchilik bolani onadan, og'ani inidan sovutganligining asarda ta'sirchan ifodalanganligi. Asl odam harqanday sharoitda ham ma'naviy pokligicha qolishining tasvirlanganligi. Hikoyadagi Shoikrom, Shone'mat Xadicha hamda Umri xola obrazlariga xos xususiyatlarning yorqin aks etganligi.

Said Ahmad. «Qoplon», «Sobiq» hikoyalari (3 soat).

Adib haqida qisqacha ma'lumot. «Qoplon» hikoyasida laganbardorlik va manfaatrastlik illatlarning qoralanishi. Qurbonboy va Qorlon timsollarini taqqoslab baholash zarurligi. Qurbonboy, Tillayev va boshqalar tasviridagi o'ziga xoslik «Sobiq» hikoyasida ishlab chiqarishni mafkuraga moslashtirgan sho'rolar tuzumi tartibotining muayyan shaxs taqdirida namoyon bo'lishi tasvirlanganligi. Hikoyalarning til xususiyatlari, muallif nuqtayi nazarining yashirin ifodalanishi.

Nazariy ma'lumot: Badiiy asarda kulgi.

Musa Jalil. «Ishonma» she'ri (2 soat).

Musa Jalil hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

Shoirning Ikkinchi jahon urushi yillarida asirlikka tushishi va Maobit qamoqxonasida qatl etilishi. «Maobit daftari» she'rlar turkumining yaratilish tarixi. «Ishonma» she'rining g'oyaviy mazmuni. Asir shoir qalbidagi shubha va gumonlarning she'rda o'z ifodasini topishi. O'z Vatanini sevgan inson iroda kuchining she'rda badiiy mujassamlanganligi.

SO 'ZDA HIKMAT BOR

Xalq qo'shiqlari (2 soat).

Qo'shiq xalq og'zaki ijodining qadimiy va keng tarqalgan janri sifatida. Lirik qo'shiqlarda inson his-tuyg'ularining favqulodda aniq va ta'sirchan aks ettirilishi. Qo'shiqlarda o'zbekona timsollarning nafis va nazokatli tasvirlar vositasida berilishi. Qo'shiq – ramzlar vositasida, ishora va ohanglar orqali insoniy tuyg'ularni ifodalovch vositasi ekanligi. Mehnat qo'shiqlari. Marosimlar bilan bog'liq qo'shiqlar (yig'i-yo'qlovlar, yor-yor,to'y salomlar).

Nazariy ma'lumot: Qo'shiq va uning turlari haqida tushuncha.

Alisher Navoiy. Hikmatli so'zlar. Ruboiylar. (6 soat).

Navoiy hikmatli soʻzlarining mazmun-mohiyati, umrboqiyli.

«Mahbub ul-qulub» - hayotiy hikmatlar majmuasi sifatida. «Sahovat va himmat bobida», «Hilm zikrida», «Safar manofii zikrida» qismlaridagi ilm va hunar, yaxshilik, insoniylik, rostgoʻylik va yolgʻonchilik, sabr va qanoat, mehr, vafo, insoniylik haqidagi hikmatlarning oʻziga xosliklari. Ularning xalq maqollariga yaqinligi, ulardan farqi. Bu hikmatlarning maʼnaviy-axloqiy, taʼlimiy, tarbiyaviy va badiiy ahamiyati. hikmatlarda hayotiy hodisalarning qisqa, ixcham, loʻnda va taʼsirchan ifodalangani. Hikmatlarning qurilishi. Ulardagi badiiy tasvir vositalari.

Ruboiylarda odamiylik, ezgulik, vafo kabi insoniy sifatlarning ifodalanishi.

Nazariy maʼlumot: Hikmatli soʻzlar haqida tushuncha.

Gulxaniy. «Zarbulmasal» (4 soat)

Gulxaniyning hayoti va ijodi haqida qisqacha maʼlumot. «Zarbulmasal» – oʻzbek adabiyotidagi yangi hodisa sifatida. Uning tarkibidagi maqol va masallar haqida umumiy maʼlumot. «Maymun bilan Najjor» masali. Masalning gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari. Undagi Maymun va Najjor obrazlarining yaratilishidagi oʻziga xosliklar. Asardagi badiiy tasvir vositalari va til xususiyatlari. Matn ustida ishlash. Masalda tabiat tasviri. Masalning maʼrifiy, tarbiyaviy, badiiy-estetik ahamiyati

Nazariy maʼlumot: Masal haqida tushuncha.

H. Xorazmiy. “Boʻz toʻquvchi kampir” (3 soat)

Adib hayoti va ijodi haqida qisqacha maʼlumot. Hikmatning maʼnaviy-axloqiy, taʼlimiy, tarbiyaviy ahamiyati. Unda manfaat uchun ikkiyuzlamachilik qilishning qoralanishi. Asarda hayotiy voqeaning taʼsirchan ifodalangani. Hikmatning badiiy xususiyati.

Avaz Oʻtar. «Til», «Fidoyi xalqim», «Sipohi pora istar», «Biling, ushbu zamon hamnokidurman» sheʼrlari (2 soat).

Avaz Oʻtar hayoti va ijodi haqida qisqacha maʼlumot. Avaz Oʻtar adabiyotdagi yangi mavzu va gʻoyalar kuychisi sifatida. «Til», «Fidoyi xalqim», «Sipohi pora istar», «Biling, ushbu zamon gʻamnokidurman» sheʼrlarining mazmun-mohiyati, gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari.

Abay. Nasihatlar (2 soat).

Abay hayoti va ijodi haqida maʼlumot.

Abayning odob-axloqqa doir qarashlari. Ijodkorning taʼlim-tarbiyaga, ilm olishga, toʻgʻrilikka oid nasihatlarining umuminsoniy mazmun-mohiyati. Abay nasihatlarida sharqona odob va axloq masalalarining ifodalanishi. Mazkur nasihatlarining tarbiyaviy ahamiyati.

RANGIN TUYGʻULAR

Zulfiya. «Baxtim bor, ajoyib kishilar aro..», «Bogʻlar qiygʻos gulda», «Nevara», “Bahor keldi seni soʻroqlab” sheʼrlari (3 soat).

Shoira hayoti va ijodi haqida maʼlumot.

Zulfiya sheʼrlarida yashagan umridan va qilgan mehnatidan iftixor tuygʻusiga toʻlgan kishi ruhiy olamining ifodalanishi. Shoir sheʼrlarida hayotga, yashashga boʻlgan zavqning turli shakllarda mujassamlanishi. Shoira sheʼrlarining badiiy jozibasi.

Pirimqul Qodirov «Nizomning tantiligi» (4 soat).

Adib haqida qisqacha maʼlumot. «Avlodlar dovoni» romani haqida qisqacha maʼlumot. «Nizomning tantiligi» bobida chin insoniy fazilatlar favqulodda holatlarda namoyon boʻlishining koʻrsatilganligi. Nizom, Humoyun, Sherxon, uning oʻgʻillari obrazlari tabiatidagi oʻziga xosliklarning nozik tasvirlanganligi.

Asarda davr shiddati va talotumlarining aks etishi. Ezgu insoniy xislatlar mavjudligi milliy, irqiy va diniy tafovutlardan qatʼi nazar har kimning oʻziga bogʻliqligi ifodalanishi. Parchada tasvirlangan qaltis voqealar dramatzizmining xarakterlar dramatzizmiga aylanganligi.

H. Olimjon “Oʻzbekiston” (3 soat).

Shoir hayoti va ijodi haqida maʼlumot H.Olimjon – oʻzbek adabiyotining isteʼdodli namoyndalaridan biri ekanligi. Shoirning “Oʻzbekiston” sheʼrida el-yurt goʻzalligining betakror taʼrifda badiiy tasvirlanganligi. Sheʼrning badiiy xususiyatlari, tasvir visitalari.

Togʻay Murod. «Yulduzlar mangu yonadi» qissasi (4 soat).

Yozuvchi hayoti va ijodi haqida maʼlumot.

«Yulduzlar mangu yonadi» qissasida oʻzbek xalqiga xos urf-odat, ruhiyat va maʼnaviy qadriyatlarning oʻta taʼsirchan, oʻziga xos yoʻsinda aks ettirilganligi. qissa qahramoni Boʻri polvonga xos mardlik, tantilik, halollik xislatlarining turli vaziyatlarda namoyon boʻlishi.

Asarda oʻzbek qishloqlari hayotiga doir holatlarning gʻoyat jonli aks etganligi. Ajdodlarga mansub ezgu odatlarning Shukur, Tilovberdi, Temir singari obrazlar tasvirida tasvir etilganligi. qissaning taʼsirchanligi va oʻziga xosligini taʼminlagan omillar. Asarning til xususiyatlari.

Nizomiy Ganjaviy. Ruboiylar (2 soat)

Nizomiy Ganjaviy hayoti va ijodi toʻgʻrisida qisqacha maʼlumot. Adib ruboiylarida hayot haqiqatlari, yuksak insoniy fazilatlar talqini. “Umrimizku shom-u xufton orasi”, “Adolat farzandi zafardir, zafar”, “Ne gaplar bor, qaytarishga chidamaydi bet”,

Ibroyim Yusupov. «Qadrdon soʻqmoqlar» sheʼri (2 soat).

Ibroyim Yusupov hayoti va ijodi toʻgʻrisida maʼlumot. Shoirning hozirgi qoraqalpoq sheʼriyatida tutgan oʻrni. «Qadrdon soʻqmoqlar» sheʼrida kindik qoni toʻkilgan qishloqqa boʻlgan mehr-muhabbatning ifodalanishi. Vatanga boʻlgan muhabbatning qadrdon xonadon, qadrdon soʻqmoqlarga boʻlgan muhabbatdan boshlanishi. Sheʼrda lirik tuyoʻning mohirona ifodalanganligi.

Asarlarni oʻrganish uchun – 72 soat

Oʻquvchilar yod olishi lozim boʻlgan asarlar:

Navoiy. Hikmatli soʻzlar, ruboiylar, qitʼalardan namunalar.

Xalq qoʻshiqlari: «Sunbula», «Beqasam toʻnlar kiyib».

Gulxaniy. «Maymun bilan Najjor» masalidan parcha

Muqimiy. «Tanobchilar» dan parcha.

Avaz Oʻtar. «Til», «Fidoyi xalqim» sheʼrlari.

Musa Jalil. «Ishonma» sheʼri.

Zulfiya. «Bogʻlar qiygʻos gulda» sheʼri.

E.Vohidov. «Oʻzbekim» sheʼri.

Nizomiy Ganjaviy. Ruboiylaridan namunalar

VII sinf (102 soat)

Kirish (1 soat).

Badiiy adabiyotning soʻz sanʼati ekanligi. Hayot hodisalarini badiiy obrazlar vositasida tasvirlashning oʻziga xosligi. Badiiy adabiyotning ilmiy adabiyotdan va sanʼatning boshqa turlaridan farqi. Soʻz sanʼatining namoyon boʻlish shakllari. Adabiy tur va janrlar.

KOʻZIM QAROGʻIDASAN, VATAN!

Hamza. «Jonlarni jononi vatan», «Dardiga darmon istamas» sheʼrlari (2 soat).

Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti va ijodi haqida maʼlumot.

Milliy uyoʻnosh davri oʻzbek adabiyoti namoyandalari ijodida Vatan mavzuining asosiy oʻrinni egallashi sabablari.

«Vatan», «Dardiga darmon istamas» sheʼrlarida chorizm zulmi ostida ezilgan, jaholat botqoʻliga botgan Turkiston xalqlari qismatiga qayoʻirish. Shoirning xalq ogʻzaki ijodiga xos timsollar va xalq iboralaridan foydalanishi.

Saida Zunnunova. «Mening Vatanim!», «Yer uzra qoʻndi oqshom», «Qizimga», «Buvilar duoga qoʻllarin ochib» sheʼrlari (2 soat).

Shoira hayoti va ijodi haqida maʼlumot.

S.Zunnunova sheʼrlaridagi tuygʻular teranligi va samimiyligi. «Mening Vatanim!» sheʼrida yurtga muhabbat tuygʻularining ifoda qilinganligi. «Er uzra qoʻndi oqshom», «Qizimga» sheʼrlarida ona mehrining badiiy yoʻsinda ifodalanganligi.

S.Zunnunova sheʼrlarining badiiy xususiyatlari.

Shuhrat. «Mardlik afsonasi» balladasi (2 soat).

Shuhrat hayoti va ijodi toʻgʻrisida maʼlumot. «Mardlik afsonasi» balladasida oʻzbek xalqining eng qadimgi zamonlarda mustaqillik uchun olib borgan kurashining tasvir etilishi. Toʻmaris obrazi. Toʻmaris boshchiligidagi xalq jasoratining ballada janriga xos poetik vositalar orqali tasvirlanishi. M.Osimning

«To‘maris» hikoyasi bilan «Mardlik qissasi» balladasi o‘rtasidagi yaqinlik va farqli tomonlar. Balladaning tarbiyaviy ahamiyati.

Rasul Hamzatov. «Ona tilim», «Nevaram Shahrizodga» she‘rlari (2 soat).

Shoir hayoti va ijodi haqida ma’lumot.

«Ona tilim» she‘rida ona tilining millatni, shu millatga mansub har bir shaxsning

o‘zligini saqlab qoluvchi vosita ekanligining ko‘rsatilishi. Tilga muhabbat orqali elga muhabbat paydo bo‘lishining ifodalanishi. «Yo‘lga chiqqan har odam» she‘rida katta hayotiy falsafaning aks etganligi. She‘rlarning ma’rifiy, tarbiyaviy, estetik ahamiyati.

Asqad Muxtor. «Yulduzim», «Tug‘ilish», «Yo‘l», «O‘zinniki emas bu umr...» she‘rlari (2 soat).

Asqad Muxtorning hayoti va ijodi to‘g‘risida ma’lumot.

A.Muxtor she‘riyatining o‘ziga xos xususiyatlari. «Yulduzim», «Tug‘ilish», «Yo‘l», «O‘zinniki bu umr...» she‘rlarida shoir ruhiy olamining ifodalanishi. Bu she‘rlarda yashashdan maqsad xalq va jamiyat oldidagi mas’uliyatni his etib yashash va o‘zidan yaxshi iz, yaxshi nom qoldirish, degan g‘oyaning badiiy mujassamlanishi. A.Muxtor she‘rlaridagi fikr va tuyg‘u uyg‘unligidagi o‘ziga xoslik. Bu she‘rlarning badiiy xususiyatlari.

Mirmuxsin. «Me’mor» romanidan parcha (2 soat).

Mirmuxsin hayoti va ijodi to‘g‘risida ma’lumot.

«Me’mor» asarida XV asr voqealarining tasvirlanganligi. Asar qahramonining o‘z davri uchun sidqidildan xizmat qilganligi, muhtasham binolar tarxini tuzib, hukmdorlar shuhratini ko‘tarsa ham ulardan marhamat ko‘rmaganligi tasviri. O‘z e’tiqodiga, qarashlariga sodiq me’mor timsoli orqali iste’dodli kishilar hayotining aks ettirilishi

O‘. Umarbekov. «Qiyomat qarz» hikoyasi (3 soat).

O‘. Umarbekov hayoti va ijodi to‘g‘risida ma’lumot. «Qiyomat qarz» hikoyasida aks ettirilgan qahramon kechinmalari, qarzni qaytarolmaslikdan chekkan iztiroblari tasviri, hikoyadagi insoniy qadriyatlar tasviri. Asarda millatga xos halollik, samimiylik, soddalik va bag‘rikenglikning ishonarli ifodalanganligi.

Sarsonboy ota timsoli. Hikoyaning ahamiyati va ifoda tarsi. Hikoya orqali millatga o‘zganin haqidan qo‘rqish, diyonat kabi insoniy sifatlarning ulug‘lanishi.

Hikoya haqida.

Mark Tven. «Tom Coyerning yangi sarguzashtlari» (3 soat).

Mark Tven hayoti va ijodi to‘g‘risida ma’lumot.

«Tom Coyerning yangi sarguzashtlari» asari avtobiografik asar sifatida. Tom – ta’qiqlarni buzuvchi, yangilikka intiluvchi, xayolparast va tirihsqoq bola sifatida

tasvirlanganligi. Asarda bolalar dunyosining o'ziga xos tarzda tasviri berilganligi. Asarning badiiy-estetik xususiyatlari va ma'rifiy, badiiy ahamiyati

Ch. Aytmatov. «Oq kema» qissasi (5 soat).

Adib haqida qisqacha ma'lumot. «Oq kema» qissasida ta'sirchan, beg'ubor va xayolchan bola timsolining tasvirlanishi. Shuningdek, uning qalbiga xos pokiza va ezgu tuyg'ularning bobosi Mo'min chol tabiatida ham namoyon bo'lishi. Go'zal insoniy tuyg'ular sohibining manfaatparastlar davrasida yashashi nechog'lik og'ir ekanligi bola, chol va O'rozqul munosabatlarida aks etishi. Bu holatning bola ruhiyatiga dahshatli ta'siri. Hayotiy voqelik va bolaning xayolot olami o'rtasidagi shafqatsiz ziddiyatning ko'rsatilishi. Qabohatlar manbai qayerdaligini bilmagan va ularga qarshilik qilishdan ojiz gunohsiz bolaning bu bulg'anch dunyoni tashlab ketishi insonning ma'naviy tanazzuliga qilingan isyon ekanligi.

Ona bug'u obrazi va uning ramziy xususiyati.

Nazariy ma'lumot: Ramziy obrazlar.

MOZIYDAN SADOLAR

Ravshan» dostoni (5 soat).

Ishqiy-sarguzasht dostonlarning o'zbek xalq dostonchiligida katta o'rin tutishi. Dostonning syujeti va kompozitsiyasi. «Go'ro'g'li» turkumidagi ishqiy-sarguzasht dostonlar va mazkur turkumda «Ravshan» asarining tutgan o'ri. Doston voqealarining turkiy xalqlar dostonchiligida keng tarqalgan motiv ekanligi. Dostonning bizgacha etib kelishida Ergash Jumanbulbulning xizmati. Dostondagi Go'ro'g'li, Yunus pari, Avazxon, Ravshan, Zulxumor, aka-uka kallar obrazlarining tahlili.

Nazariy ma'lumot: Mubolag'a haqida tushuncha.

Alisher Navoiy. «Mehr va Suhayl» (6 soat)

Navoiy «Xamsa»si va Sharq adabiyotida xamsachilik. «Hayrat ul-abror» shoirning olam va odam haqidagi fikrlarini badiiy aks ettirgan asar sifatida.

«Sab'ai sayyor» dostonida beshinchi iqlim yo'lidan kelgan musofirning Mehr va Suhayl haqidagi hikoyasi. Hikoyada sadoqat, mardlik-tantilik kabi insoniy tuyg'ular ifodasi. Obrazlar tahlili. Bunda muallif mahoratining namoyon bo'lishi.

Nazariy ma'lumot: Ma'naviy san'atlar (tashbih, tanosub) haqida tushuncha.

Turdi. «Tor ko'ngullik beklar», «Turdiman» she'rlari (3 soat).

Shoir hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Shoir ijodi o'z zamoni va zamondoshlariga bergan baho sifatida. «Tor ko'ngullik beklar», «Turdiman», she'rlari tahlili. Ular tili. She'rlarning badiiy xususiyatlari. Turdi - satira ustasi sifatida.

Uvaysiy. «Mehnatu alamlarga mubtalo Uvaysiymon», «Ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi» g'azallari, «Anor», «Yong'oq», «Kun va tun» chistonlari (3 soat).

Shoiraning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Shoir g'azallarida ijtimoiy hayot hodisalaridan norozilik, ularga nisbatan ko'ngildagi itztirob va

kechinmalarining ta'sirli aks ettirilishi. Shoiraning «Anor», «Yong'oq», «Kun va tun» chistonlari hamda ularning o'ziga xos badiiy xususiyatlari.

Nazariy ma'lumot: Radif, chiston haqida tushuncha.

Zavqiy. «Ahli rasta hajvi», «Ajab ermas» she'rlari (2 soat).

Shoirning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. «Shohimardon xotirasi»ning sayohatnoma janrida yaratilganligi. Unda Muqimiy sayohatnomalaridan ta'sirlanishning izlari. She'rda ona-yurt tasvirining asosiy o'rin tutishi. «Ajab ermas» - o'zbek siyosiy lirikasining go'zal namunasi sifatida. She'rlarning badiiy xususiyatlari.

Maxtumquli. «Adolat yaxshi», «Elingni» she'rlari (2 soat).

Maxtumquli hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Maxtumqulining faqat turkmanlar uchun emas, balki barcha turkiy xalqlar uchun ham aziz va mo'tabar ekanligi. Shoir she'rlarida ma'naviy – axloqiy mavzularning ustivorligi.

«Adolat yaxshi», «Elingni» she'rlarining tahlili. She'rda umuminsoniy g'oyalarning ilgari surilgani. Maxtumquli she'rlariga xos badiiy xususiyatlar. Ularning ma'rifiy – tarbiyaviy hamda badiiy ahamiyati.

Shota Ructaveli. «Yo'lbars terisini yopingan pahlavon» dostonidan parcha (4 soat)

Dostonda umumbashariy g'oyalarning yuksak badiiy tarzda ifoda etilgani. Asarda chin insoniylik, sadoqat, mardlik sinagari insoniy fazilatlarning ulug'lanishi. «Yo'lbars terisini yopingan pahlavon» dostoni – jahon adabiyotining eng go'zal namunalaridan biri sifatida.

YANGI DAVR NAFASI

Abdulla Qodiriy. «Mehrobdan chayon» romanidan (5 soat).

Abdulla Qodiriyning o'zbek romanchilik maktabining asoschisi ekanligi. Uning romanlarida realizm va romantizm metodlarining uyg'unlashib ketishi.

«Mehrobdan chayon» romanidagi «Baxmalbofda faqir bir oila», «Taniysanmi shu jajji qizni?», «Chin o'rtoq», «Maxdumning baxti» fasllaridagi uzviylik. «Chin o'rtoq» faslidagi do'stga sadoqatning jozibali tasviri. Anvar va Nasim obrazlari tahlili. Yozuvchining mahorati. Asarning tarbiyaviy ahamiyati.

Cho'lpon. «Binafsha», «Go'zal», «Ko'ngil», «Xalq» she'rlari (3 soat).

Shoir hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

«Go'zal» she'rda go'zallik qoshida lol qolgan inson ruhiyati po'rtanalarining, oy, quyosh, yulduz, shamol obrazlarida oshiq taqdirining ta'sirchan ko'rsatilishi. «Binafsha» she'rda binafsha obrazida inson qismatining aks ettirilishi. Mazkur she'rlarda ifodalash mushkul bo'lgan nozik hissiyotlarning aniq tasvir etilganligi. Shoir she'rlarida lirik qahramon holatiga mos tasvir usuli va vositalarining qo'llanishi. Cho'lponning so'z va poetik obrazni yaratish mahorati.

«Xalq» va «Ko'ngil» she'rlarida Cho'lpon shaxsiyati va dunyoqarashiga xos belgilarning namoyon bo'lishi.

Nazariy ma'lumot: Ko'chim haqida tushuncha.

Xayriddin Saloh. “Yulduzlar afsonasi” asari. (3 soat)

Xayriddin Salohning hayoti va ijodi haqida ma'lumot. “Yulduzlar afsonasi” asarining o'zbek xalq afsonalari ruhida yaratilganligi. Asarda tilga olingan samoviy jismlarning inson hayoti va hayolot olami bilan bog'liqligi. Hulkar etti qaroqchi obrazlari. Yerdagi odamlar o'rtasidagi ziddiyatlarning kurashlarning va kelishmovchiliklarning asardagi ramziy tasviri.

Asarda tasvirlangan voqealarning aniq va ta'sirchan ifodalanganligi.

Asarning badiiy xususiyatlari.

Nazariy ma'lumot. Ballada

Maqsud Shayxzoda. «Yillarning salomin yillarga eltib» she'ri, to'rtliklar (2 soat).

Shoir haqida ma'lumot. M. Shayxzoda she'riyatida hayotga falsafiy qarashning ustuvorligi. She'rda vaqt qadrini, uni chuqur his qilgan kishi tuyg'ularining aks etganligi. Asarda shoirning hayotga muhabbati, yashashga chanqoqligi xislatlarining tasvirlanganligi. She'rning ta'sirchanligini ta'minlagan badiiy vositalar.

To'rtliklarda insonni avaylash, unga imkon boricha muruvvat ko'rsatish fikrlarining badiiy tajassum etganligi.

Abdulla Qahhor. «O'g'ri», «Dahshat» hikoylari (3 soat).

Adib haqida ma'lumot. «O'g'ri» hikoyasida jabrdiyda chol Qobil bobo va o'zgalar baxtsizligini tirikchiligi manbaiga aylantirgan amaldorlar obrazi.

Adibning tasvirlash mahorati, so'z qo'llash san'ati, inson ruhiyatining yashirin jihatlarini ocha bilish iste'dodi.

Dahshat» hikoyasida insonni engish mumkin emasligining kurashchan ayol - Unsin obrazi misolida g'oyat ta'sirchan ko'rsatilganligi. Hikoyada har bir obraz tabiatining psixologik jihatdan asoslanganligi. Tasvirning hayotiy va ta'sirchanligi.

Mirtemir. «Men tug'ilgan tuproq», «Onaginam», «Toshbu», «Betobligimda» she'rlari (3 soat).

Mirtemirning qalamkash do'stlaridan milliy shoir sifatida farqlanishi. Shoir ijodidagi xalqona ohanglar. «Onaginam» she'rda uzilmagan farzandlik qarzi tufayli lirik qahramon iztiroblari, qalb tug'yonlarining aks ettirilishi. Tug'yonlar ko'lami va shoirning tasvirlash mahorati. «Toshbu» she'rda o'zbek ayollariga xos yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarning yorqin va ta'sirchan aks ettirilishi. «Men tug'ilgan tuproq» she'rda ona yurt obrazining yaratilishi. She'rning samimiyligi va ta'sirchanligini ta'minlaydigan badiiy omillar. Mirtemirning tasvirlash san'ati. Uning she'riyatiga xos soddalik, samimiylilik va rostgo'ylik.

Nazariy ma'lumot: Tabiat lirikasi haqida tushuncha.

E.S. Tompson. «Yovvoyi yo'rg'a» hikoyasi (3 soat).

Adib hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Uning qalamiga mansub «Yovvoyi yo'rg'a» asarining ko'plab tillarga tarjima etilgani va katta shuhrat

qozongani. Asarda erkinlik, hurlik tuygʻusining ulugʻlanishi. Ozodlikning oʻlimdan kuchli ekanligi tasviri, Undagi asosiy obrazlar talqini

Asarlarni oʻrganish uchun – 70 soat.
Yozma va ogʻzaki ijodiy ishlar –28 soat
Takrorlash uchun – 4 soat.

Yod olinishi lozim boʻlgan asarlar:

«**Ravshan**» dostonidan parcha

Turdi. «Tor koʻngulli beklar..» gʻazali.

Uvaysiy. Gʻazal, «Anor», «Yongʻoq», «Kun va tun» chistonlari.

Choʻlpon. «Goʻzal» sheʼri.

Mirtemir. «Toshbu», «Betobligimda» sheʼrlari.

Asqad Muxtor. «Yulduzim», «Tugʻilish» sheʼrlari.

Saida Zunnunova. «Buvilar duoga qoʻllarin ochib..» sheʼri.

M. Shayxzoda. «Toʻrtliklar».

VIII sinf (102 soat)

Kirish (1 soat).

Davr, ijodkor va adabiyot. Adabiyotda muayyan millat hayotiga daxldor jihatlarni aks ettirish sabablari. Adabiyotning zamonaviyligi. Badiiy adabiyotda zamondosh obrazining ifodalanishi. Adabiyotning ijtimoiy muammolarga hamohangligi va umrboqiyliigi oʻrtasidagi aloqa. Badiiy adabiyot adabiy til shakllanishidagi asosiy vosita sifatida. Davrga daxldor dolzarb ijtimoiy muammolarning badiiy asarlarda aks ettirilishi va uning oʻziga xos jihatlari.

XALQ OGʻZAKI IJODI

«Kuntugʻmish» dostoni (5 soat).

Xalq dostonlari - millat ruhiyatini ifodasi sifatida. Dostonlarning turlari. «Kuntugʻmish» ishqiy-sarguzasht dostonlarining goʻzal namunasi sifatida. Dostonda Ergash Jumanbulbul mahoratining namoyon boʻlishi. Asar syujetining zulm va zoʻrlilik bilan ajratilgan oshiq-maʼshuqlar sarguzashtlariga tayanishi. Asardagi yetakchi qahramonlar tasviri. Kuntugʻmish, Xolbeka Gurkiboy, Mohiboy obrazlarining mahorat bilan tasvirlanganligi. Dostondagi Buvraxon, Azbarxoʻja, Qosim, Xolmoʻmin, choʻpon obrazlarining oʻziga xos shaxslar sifatida aks ettirilganligi.

Dostonning asosiy gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari. Asar syujet chiziqlarida mantiqiy izchillikning kuchliligi.

Nazariy maʼlumot: Dostonlarning shakliy-poetik xususiyatlari.

OʻZBEK ADABIYOTI TARIXI

Yusuf Xos Hojib. «Qutadgʻu bilig» asari (4 soat).

Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodi haqida qisqacha maʼlumot. «Qutadgʻu bilig» - turkiy yozma adabiyotning ilk yirik namunasi Asar didaktik doston namunasi sifatida. Asarda Adolat, Davlat va Aqlning oʻziga xos talqini. Dostonning asosiy

g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Bek qanday bo'lmog'i kerakligi haqidagi bob tahlili. Bekka qo'yiladigan axloqiy-ma'naviy talablarning badiiy ifodasi. «Qutadg'u bilig»ning til xususiyatlari. Bunda Yusuf Xos Hojibning mahorati.

Nazariy ma'lumot: Masnaviy haqida tushuncha.

Lutfiy. «Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma», «Meni shaydo qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul», «Ayoqingg'a tushar har lahza gisu» g'azallari va tuyuqlari (4 soat).

Shoirning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Lutfiy merosi va xalq og'zaki ijodi. «Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma», «Meni shaydo qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul», «Ayoqingg'a tushar har lahza gisu» g'azallarining tahlili. Ularning vazni, tasvir vositalari va boshqa badiiy xususiyatlari. Lutfiy – tuyuq ustasi. «Ko'ngluma har yonki boqsam dog'i bor», «Men sening ilkingdin, ey dil, bandamen», «Charxi kajraftor elidin yozamen» tuyuqlarida so'z o'yinlari. So'z o'yinlarining yuzaga kelishida tajnischnng o'rni. Tuyuqlarning vazn, qofiya va boshqa badiiy xususiyatlari.

Nazariy ma'lumot: Irsoli masal, tajnis va tuyuq haqida tushuncha.

Alisher Navoiy. G'azal va qit'alar. «Qaro ko'zum kelu mardumlig' emdi fan qilg'il», «Qoshi yosinmu deyin...», «Kecha kelgumdur debon...», «Yordin ayri ko'ngul...». «Kokazor ermaski ohimdin...», «Husni ortar yuzda zulfin...» g'azallari, «Kamol et kasbkim, olam uyidin», qit'alari (8 soat).

Navoiy g'azal mulking sultoni ekanligi. «Xazoyin ul – ma'oni» haqida qisqacha ma'lumot. Navoiy she'riyatining mavzu qamrovi va badiiyati. «Kecha kelgumdur...», «Qaro ko'zum...», «Ko'rgali husnungnu...» g'azallarida majoziy va ilohiy ishq talqini. «Jonga chun dermen...» singari g'azallari tahlili. Navoiy g'azallaridagi tasvirlarning favquloddaligi. Buning shoir mahorati bilan aloqadorligi. Navoiy va o'zbek g'azalchiligining keyingi taraqqiyoti.

«Kamol et kasbkim, olam uyidin», «Jahon ganjig'a shoh erur ajdaho» qit'alari. Ularning g'oyaviy-badiiy mazmuni va mohiyati. qit'alarning tuzilishi, tarkibi, tasvir xususiyatlari.

Nazariy ma'lumot. qit'a haqida ma'lumot.

Nodira. G'azallar (3 soat).

Nodiraning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Qo'qon adabiy muhitida Nodiraning o'rni va ahamiyati. Nodiraning g'azallarining yozilish tarixi. She'ridagi lirik qahramon kechinmalari talqini. Shoira ijodida hijron va ayriliq ohanglari.

XX ASR O'ZBEK ADABIYOTI

Abdurauf Fitrat. «Mirrix yulduziga», «O'gut», «Go'zalim, bevafo gulistonim» she'rlari (3 soat).

Fitrat hayoti va ijodi haqida ma'lumot. Fitratning iste'dodli olim, taniqli dramaturg bo'lish bilan birga xassos shoir ham ekanligi.

«Mirrix yulduziga» istiqlol orzusi bilan yaratilgan asar sifatida. She'ning Oktyabr to'ntarishidan keyingi yangi hokimiyat, uning boshida turgan «bir o'lkani yondirib, o'z qozonin qaynatg'uvchi hoqonlar», «el-yurtini sotgan» xiyonatkorlar ustidan o'qilgan badiiy hukm ekanligi. Asardagi shoir dardi va ijodiy jasorati. Mirrix yulduziga murojaat etish – o'ziga xos poetik usul sifatida. «O'gut» - bugungi kun yoshlari uchun ham ahamiyatini yo'qotmagan she'r ekanligi. «Go'zalim, bevafo gulistonim» - shoir ishqiy lirikasining mumtoz namunasi sifatida. She'rda sevgida vafodorlik va fidoyilikning madh etilishi, rad etilgan muhabbat iztiroblarining obrazli tasviri.

Hamza Hakimzoda Niyoziy. «Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari» dramasi (4 soat).

Hamzaning o'zbek milliy dramaturgiyasi shakllanishi va taraqqiy etishiga qo'shgan hissasi. XX asr boshida yaratilgan sahna asarlarida ma'rifatparvarlik, milliy ma'naviyat va axloq, dunyoviy tafakkur targ'ibining markaziy o'ringa chiqishi. «Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari» dramasi o'z davri dramatik asarlari bilan g'oyaviy va badiiy aloqadorligi. Dramaning yaratilishiga turtki bo'lgan ijtimoiy- muhit. Asarning markaziy qahramonlari Mahmudxon va Maryamxonning mazkur muhitga munosabati. Asarda otalar va bolalar muammosi tahlili. Dramaning badiiy xususiyatlari. Asarning bugungi kundagi ahamiyati.

G'afur G'ulom. «Sog'inish», «Vaqt» she'rlari (3 soat).

G'afur G'ulomning XX asr o'zbek she'riyatida tutgan o'rni.

«Sog'inish» she'rida otaga xos sog'inch tuyg'usining tiniq va jozibali ifodalanishi. Lirik qahramon tabiatida milliy o'ziga xoslikning bo'rtib ko'rinishi. She'rda yaxshilikka, ezgulikka, ertangi kunga ishonch tuyg'ulari tasvirining xalq ruhi o'lmasligi haqidagi falsafiy xulosaga o'sib chiqishi. «Vaqt» she'rida umr falsafasi, hayotning har bir daqiqasini qadrlab va iz qoldirib yashashga da'vatning yuksak poetik shaklda ifodalanishi. Shoir she'rlarida so'z qo'llash san'ati.

M. Shayxzoda. «Mirzo Ulug'bek» tragediyadasi (5 soat).

Shayxzodaning o'zbek dramaturgiyasi taraqqiyoti tarixida o'rni. «Mirzo Ulug'bek» asari o'zbek adabiyotidagi tragediya janrining yetuk namunasi sifatida. Ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash – dramaning negizi sifatida. Temuriyzoda hukmdor Ulug'bek hamda olim va ma'rifatparvar Ulug'bek o'rtasidagi ziddiyatning aks ettirilishi. Ulug'bekning allomalik fazilatlarini va insoniy xislatlarini yoritish dramaturgning bosh maqsadi ekanligi. Asarda shoh va olim Ulug'bekning fojiasi haqidagi tarixiy haqiqat va badiiy to'qimaning o'zaro munosabati. Tragediyadagi falsafiy ruh va til jozibadorligi.

Nazariy ma'lumot: Tragediya (fojia) haqida tushuncha.

Usmon Nosir. «Yurak», «Nil va Rim», «Monolog» she'rlari (3 soat).

Usmon Nosirning fojiali taqdiri haqida ma'lumot.

Shoirning adabiy merosi. «Yurak» she'rining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. She'rdagi tuyg'u va fikr parvozi. She'ning ohangdorligi. «Nil va Rim» she'ri –

erk madhiyasi ekanligi. She'rdagi tarixga – ozodlik va mustaqillik uchun olib borilgan asriy kurash sahifalariga murojaat qilib, insoniy erk uchun kurashning abadiyligi va davomiyligi masalasining yuksak poetik ifoda etilgani. «Monolog» she'rida sevgi mavzuining o'ziga xos talqini. Shoir uslubidagi ichki shiddatli ritm va keskinlik, o'xshatish va jonlantirishlarning originalligi. Shoirning betakror so'z qo'llash mahorati. Usmon Nosir lirikasining faqat o'zigagina xos bo'lgan qirralari.

Asqad Muxtor. «Chinor» romani (4 soat).

A.Muxtorning nasriy ijodi haqida ma'lumot.

«Chinor» romani adibning ijodidagi yangi bosqich sifatida. Romanning etakchi qahramonlari va kompozitsion o'ziga xosligi. Akbarali qismati haqidagi fasl «Chinor» romanining eng dramatik sahnalaridan biri ekanligi. Asarda insoniy ojizlik, loqaydlik, qo'rqqulik, irodasizlik fojiga olib kelishi mumkinligining ishonarli tasvirlab berilgani. Lahzalik qo'rqqulik sababli Bektemirning o'limiga sabab bo'lgan Akbaralini vijdon azobi tinimsiz ta'qib etishi va oxir-oqibat halokatga olib kelishi. Bu voqea tasviridagi samimiylilik va ta'sirchanlik. Akbarali ruhiy olamining teran tasviri. qissaning yuksak tarbiyaviy ahamiyati.

Said Ahmad. «Qochoq» asari («Ufq» romanidan) (3 soat).

Yozuvchining «Ufq» trilogiyasi haqida ma'lumot. Romanda Ikkinchi jahon urushi davrida o'zbek xalqi hayotining haqqoniy tasvir etilishi. «Hijron kunlarida» kitobining bosh qahramoni Ikromjon - murakkab taqdirli shaxs. Beshafqat urushning asar qahramonlari taqdiridagi izlari. Erka farzand – qochoq Tursunboy qismati. Yozuvchining xarakter yaratishdagi milliy o'ziga xosligi. Asardagi tabiiylilik va ruhiy tahlil. Roman tilining jozibadorligi. Asarning tarbiyaviy ahamiyati.

Ozod Sharafiddinov. «O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan» maqolasi (3 soat).

Adabiyotshunosning hayoti va ijodiy faoliyati to'g'risida ma'lumot.

Adibning o'zbek madaniyati, fani va publitsistikasi rivojiga qo'shgan ulkan hissasi to'g'risida. O.Sharafiddinovning ijodda va hayotda halollik, prinsipiiallik, adolatlilik singari qadriyatlarini yuksak tutgani. Adibning «O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan» maqolasida ilgari surilgan g'oyalar. Vatan tuyg'usi, Vatan oldidagi farzandlik burchini anglash masalalari O.Sharafiddinov talqinida. Bu borada muallifning o'zi va zamondoshlari oldiga qo'ygan talablari. Maqolaning bugungi yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati.

To'ra Sulaymon. «Iltijo», «Armon», «Tavallo», «Gul bir yon, chaman bir yon» she'rlari (3 soat).

Shoirning hayot va ijod yo'li haqida muxtasar ma'lumot. To'ra Sulaymon she'rlarining xalqchilligi. «Iltijo» she'rida hayotga, tiriklikka bo'lgan muhabbat tasviri. Bahor obrazi tasviridagi tuyg'ular rang-barangligi. «Armon» she'ri shoirning hayotiy pozitsiyasi, e'tiqodlari mujassam bo'lgan asar sifatida. «Tavallo» she'rida onalarga xos bo'lgan ajoyib fazilatlarining tarannum etilishi. «Gul bir yon,

chaman bir yon» she'ring ohangdorligi, unda lirik qahramon tuyg'ularining samimiy ifodalanishi.

Muhammad Yusuf. «Vatanim», «Mehr qolur», «Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor..», «Biz baxtli bo'lamiz» she'rlari, «Qora quyosh» dostoni (5 soat).

Shoir hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

M.Yusuf she'rlarida insondagi yashirin tuyg'ularning samimiy tasvirlanishi. His-tuyg'ularning samimiyligi va haqqoniyligi M.Yusuf she'rlarining yetakchi fazilati sifatida. Shoir she'rlarida inson ko'nglidan kechgan, ifodalash mushkul bo'lgan sezgilarning o'ta tabiiy aks ettirilishi.

«Qora quyosh» dostoni – qatag'on qurbonlariga o'rnatilgan xotira. Uning o'ziga xos kompozitsiyasi va badiiyati.

M.Yusuf she'rlarining jozibadorligi va ta'sirchanligini ta'minlab turgan samimiylik, musiqiylik va tasvir o'ynoqiligi.

JAHON ADABIYOTI

Robindranat Thakur. «Nur va soyalar» hikoyasi (3 soat).

Thakur hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

«Nur va soyalar» hikoyasida insoniy g'ururdan mahrum etilgan, nafsiga qul kishilar bilan sitamdiyda, biroq ezgu tuyg'ular sohibi bo'lgan odam o'rtasidagi ziddiyatning ifodalanishi. Asarda ezgulik va manfaatparastlik, insoniylik va e'tiqodsizlik to'qnashuvining turli xarakterlar misolida ko'rsatilishi. Adibning tasvirlash mahorati.

Sergey Yesenin. «Xurosonda bir darvoza bor...», «Dog'lar ketmish majruh ko'ngildan...», «Singlim Shuraga», «Ona ibodati», «It haqida doston», she'rlari (3 soat).

Shoir hayoti va ijodi haqida ma'lumot. Esenin va O'zbekiston. «Fors taronalari» turkum she'rlarining yozilishi tarixi.

S.Yesenin she'rlarida Sharq ruhiyatining nozik ilg'ab olinishi va mahorat bilan aks ettirilishi. She'rlardagi lirizm va ritm. Tilning jozibadorligi va poetik obrazlarning milliy o'ziga xosligi. She'rlardagi lirizm va musiqiylikni saqlab qolishda Erkin Vohidovning tarjimonlik mahorati.

Fuzuliy g'azallari. (3 soat)

Fuzuliyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Uning she'rlaridagi yangicha ohanglar talqini. Shoir g'azallarida ifodalangan yuksak badiiy mahorat, ishq va oshiqlik tasviri. Ulardagi chuqur falsafiy fikrlar, teran mushohada va lirik qahramon shaxsiyati talqini.

Asarlarni o'rganish uchun – 70 soat
Yozma va og'zaki ijodiy ishlar uchun
– 28 soat
Takrorlash uchun – 4 soat.

Yod olinishi lozim bo'lgan asarlar:

«Kuntug'mish» dostonidan parcha.

Yusuf Xos Hojib. «Qutadg'u bilig» asaridan parcha

Lutfiy. «Meni shaydo qiladurg'on...», «Ayoqingg'a tushar har lahza gisu» g'azallari.

Alisher Navoiy. G'azallardan namunalar.

Fitrat. «Mirrix yulduziga», «Go 'zalim, bevafo gulistonim» she'rlari.

G'afur G'ulom. «Sog'inish», «Vaqt» she'rlari.

M.Shayxzoda. «Mirzo Ulug'bek» tragediyasidan Ulug'bek monologi.

Usmon Nosir. «Monolog» she'ri.

To'ra Sulaymon. «Armon», «Gul bir yon, chaman bir yon» she'rlari.

Muhammad Yusuf. «Vatanim», «Mehr qolur» she'rlari. «Qora quyosh» dostonidan parcha

IX sinf (136 soat)

Kirish (1 soat).

Badiiy adabiyot obrazli tafakkur mahsuli sifatida. Shaxs kamolotida obrazli tafakkurning o'rni. Adabiyot inson ruhini shakllantirish vositasi sifatida. Mantiqiy va badiiy tafakkurning o'zaro aloqador hamda farqli jihatlari. Komil shaxsni shakllantirishda hissiyot tarbiyasining o'rni. Kishi hissiyotini shakllantirishda badiiy so'zning o'rni. Komil shaxs ma'naviyatining ruhiy qirralarini ezgu qarashlarga muvofiq shakllantirish badiiy adabiyotning bosh maqsadi sifatida. Badiiy adabiyotning tarbiyaviy, estetik, ma'rifiy, kommunikativ, gedonistik vazifalari mavjud ekanligi. Insoniyat tomonidan asrlar davomida shakllantirilgan axloqiy xislatlarni o'quvchilarda tarkib toptirishga intilish badiiy adabiyotning tarbiyaviy vazifasi sirasiga kirishi. Insonning tuyg'ulari, hissiyotinigina rivojlantirib qolmay, balki tafakkurini ham taraqqiy ettirishga xizmat qilishi badiiy adabiyotning ma'rifiy vazifasi ekanligi.

XALQ OG'ZAKI IJODI

«Alpomish» dostoni (6 soat).

Turkiy xalqlar madaniyati va ma'naviyati shakllanishida «Alpomish» dostonining o'rni. Doston lirik ko'lamining turkiy estetik tafakkur va turkiy saltanatchilik bilan bevosita bog'liqligi. «Alpomish»da badiiy yo'sinda tasvirlangan turkona hayot tarzining Yusuf Xos Hojib qalamiga mansub «Qutadg'u bilig» asarida didaktik yo'nalishda aks ettirilishi.

Dostonda o'zbek milliy ruhiyati va urf-odatlarini tasviri. Mardlik, sadoqat, ezgulik, imonga egalik fazilatlarining Alpomish, Qorajon, Oybarchin, Qaldirg'och obrazlari orqali ifodalanishi. Asarning til xususiyatlari. Dostonda qo'llanilgan tasvir unsurlari. Asardagi favqulodda mubolag'alar katta maqsadlar yo'lida kurash olib borgan turkiy xalq tabiatidan kelib chiqadigan xususiyatlar ekanligi. Dostonning bizgacha badiiy yuksak holda yetib kelishida Fozil Yo'ldosh o'g'lining xizmatlari.

Nazariy ma'lumot: Xalq dostonlari va ularning turlari.

O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI

Rabg‘uziy. «Qissasi Rabg‘uziy» asari (4 soat)

Rabg‘uziyning hayot yo‘li haqida qisqacha ma‘lumot. «Qissasi Rabg‘uziy» - islomiy e‘tiqodning badiiy ifodasi. Unda qadimda o‘tgan payg‘ambar va avliyolarning Allohni tanish va tanitish yo‘lidagi kurash yo‘llarining va chekkan iztiroblarining aks etishi. Qissada tasvir ta’sirchanligini ta’minlash uchun yozuvchi qo‘llagan badiiy usullar. Tilining sodda va o‘ynoqiligi, ifodaning yengil va anglashimli ekani.

Alisher Navoiy. «Xamsa» asari (12 soat).

Navoiy ijodi – o‘zbek mumtoz adabiyotining eng yuksak bosqichi. Shoirning hayot va ijod yo‘li haqida. «Xamsa» - o‘zbek erik she’riyatining betimsol namunasi. «Xamsa» ning yozilishi. Sharq adabiyotida xamsachilik. Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy «Xamsa»lari haqida ma‘lumot. Xamsachilik mahorat maydoni sifatida. Turkiy tilda «Xamsa» yozish badiiy va milliy jasorat namunasi bo‘lganligi. «Xamsa» ning qurilishi. «Hayrat ul-abror» - falsafiy, ta’limiy-axloqiy doston. Dunyoni tasavvufiy idrok etish. Islomiy axloq targ‘ibi: iymon, ilm, adab, saxovat, rostgo‘ylik, xalqqa naf yetkazish. Siyosiy masalalar: shohlik va adolat haqida.

Doston poetikasi, qurilishi. Hikoyatlar tahlili. Tarixiy shaxslar. O‘ninchi maqolot – («Rostlik ta’rifida..»)da to‘g‘rilik va egrilik talqini. Navoiyning «rost» va «yolg‘on» haqidagi qarashlari. Shoirning ifoda usuli: ta’rif, tavsif, tanbeh.

«Farhod va Shirin» dostonining «Xamsa»da tutgan o‘rni. Dostonning badiiy xususiyatlari. Farhod shoir ideali tajassumi sifatida. Komillik yo‘liga kirgan inson manzillari tasviri. Shirin obrazi. Unda turk ayollariga xos eng baland ma’naviy fazilatlar talqini. Dostondagi boshqa obrazlar. Dostonda yaxshilik va yomonlik, razolat va adolat, butunlik va noqislik o‘rtasidagi ziddiyatning jonli shaxslar timsollarida ko‘rsatilishi.

Nazariy ma‘lumot: Yuksak ma’naviyatli inson.

Zahiriddin Muhammad Bobur. Lirika. “Boburnoma”dan parcha 7 soat).

Hayoti va faoliyati haqida ma‘lumot. Ijodiy merosiga umumiy bir qarash. Shoh-shoirning she’riy ijodi. Shoir lirikasining hasbi hollik xususiyati. «Mening ko‘nglumki, gul g‘unchasidek tahbatah qondur», «Agarchi sensizin sabr aylamak, ey yor, mushkuldur» g‘azallarida, «Beqaydmenu xarobi sir emasmen», «Tole yo‘qi jonimg‘a baloliq bo‘ldi», «Ko‘rdin berikim yoru diyorim yo‘qdur» ruboiylarida, «Bir kecha xotirim mushavvash edi» masnaviysida Boburning ziddiyatlarga to‘la hayoti poyetik aks etganligi. G‘azaliyoti. Shoir g‘azallaridagi soddalik va samimiylik yuksak san’atkorlik namunasi sifatida. «Yoz fasli, yor vasli, do‘stlarning suhbat», «Sendek menga bir yori jafokor topilmas» g‘azallarida hayot zavqi. Umr g‘animatligining betakror badiiy ifoda etilganligi. «Yoz fasli...» g‘azalida laf va nashr san’ati imkoniyatlarining namoyish qilinishi. «Sendek menga bir yori jafokor topilmas» she’rida vazn, qofiya, radif hamda poyetik san’atlarning qo‘llanishi.

“Boburnoma” o‘zbek nasrining noyob namunasi sifatida.
Boburning o‘zbek adabiyoti taraqqiyoti tarixida tutgan o‘rni.
Nazariy ma’lumot: Memuar asar haqida tushuncha

Boborahim Mashrab. G‘azallar, murabba’. (4 soat).

Hayoti va ijodi haqida ma’lumot. Mashrabning o‘zbek tasavvuf adabiyotining mashhur vakili ekanligi. Mashrab va vahdat ul-vujud ta’limoti. «Ruhi jonim arshg‘a yetti man o‘zim osmoniman», «Ishq vodiysidan bir kecha men hay-haylab o‘ttum», «Ajab Majnun erurman, dasht ila sahrog‘a sig‘mamdur», «Qildi manga bir jilva, nogoh boqa qoldim», «O‘rtar» g‘azallari o‘zbek tasavvufiy she’riyatining yorqin namunasi sifatida. Shoir she’rlarida tasavvufiy timsollar (gul - bulbul, faqr, fano). “Yorga yetar kun bormu, yoronlar” murabباسining tahlili.

Mashrab va Nasimiy, Mashrab va xalq og‘zaki ijodi. «Qissai Mashrab» («Shoh Mashrab») haqida ma’lumot. Mashrab ijodining keyingi ijodkorlarga ta’siri.

Nazariy ma’lumot: Tasavvuf haqida tushuncha.

Muhammad Rizo Ogahiy. Lirik (5 soat) .

Hayoti va faoliyati haqida ma’lumot. Ijodiy merosi. Shoirning mumtoz adabiyot tarixida tutgan o‘rni. «Ta’viz ul-oshiqin» XIX asr o‘zbek she’riyatining benazir namunasi ekanligi. Shoir g‘azallarida tabiat manzaralari. Navro‘z, bahor, qish haqidagi she’rlari. «Baland aylab quyoshg‘a roya Navro‘z», «Soqiya, mayxoralar jismidin oldi xob qish», «Qotig‘roq kelmadi hargiz jahong‘a Ushbu qishdin qish» g‘azallarida shoir hayotining aks etishi. «Iloho, har kuning Navro‘z bo‘lsin» g‘azalida an’anaviy yangi yil tilaklari va ularning poetik ifodasi. «O‘yla yetkurdi jahong‘a ziynatu oro bahor» g‘azalida bahor vasfi. Jonli tabiatning fusunkor tasvirida shoirning tashxis san’atidan samarali foydalanishi. Go‘zallik tasvirining bahor (umr) g‘animatligi hatidagi ko‘hna falsafaga bog‘lab berilishi. Ogahiyning ishqiy g‘azallari. «Yuzing ochkim, quyosh sadqang bo‘lib boshingdan aylansin», «Mushkin qoshining hay’ati ul chashmi jallod ustina» g‘azallari ishqiy she’rning yuksak namunasi sifatida. Mazkur g‘azallardagi yor timsolida (xususan, unga murojaatda) shohga xos xususiyatlarning aks etishi. G‘azallarda so‘z va ma’no birligi.

Shoirning boshqa poetik janrdagi asarlari haqida. Ogahiyning kichik she’riy janrlardagi asarlari: tuyuq, ta’rix, tarafayn. «Dahr uyi bunyodkim, suv uzradur mahkam emas» tarji’bandi va Muhammad Rahimxon Soniyga bag‘ishlangan «Qasidai nasihat»ida Ogahiyning ijtimoiy, siyosiy, axloqiy qarashlarining aks etishi. Ogahiyning poetik mahorati.

Nazariy ma’lumot: Tashxis haqida tushuncha

YANGI O‘ZBEK ADABIYOTI

Furqat. She’riyati (4 soat).

Hayoti va ijodiy faoliyati. Adabiy merosi haqida umumiy ma’lumot. Furqat – mashhur lirik shoir. «Fasli navbahor o‘ldi» g‘azalida bahorning rangin, fusunkor manzarasi tasviri. Bahor va umrning go‘zalligi, g‘animatligi. She’rning badiiyati.

«Bormasmiz» she'rida ham insoniy qadrni baland tutishning madh etilishi, ayni paytda, havoyilik va xudbinlikning tanqid qilinishi. Shoirning ishqiy she'rlari. «Chaman sahnida derlar sarv birla yosuman nozik» g'azalidagi ma'shuqa tasviri. Undagi an'anaviylik va zamonaviylik. «Surmadin ko'zlar qaro» g'azalida go'zal yor portretining inja tasviri. G'azallardagi poetik san'atlar. «Muncha zolim bo'lmish ul xunrez tarso ko'zlaring» g'azali tahlili. «Bir qamar siymoni ko'rdim, baldai Kashmirda» g'azalida ishqiy mavzuning g'urbatdagi shoir taqdiri bilan bog'lab berilishi. Furqat lirikasidagi g'urbat ohanglarining shoir hayot yo'li bilan bevosita bog'liqligi. «Fig'onkim, ul buti siymin zaqandin ayrilib qoldim», «G'aribi bu viloyat xonumonidin adashganman», «Hasrato, kel-kel beri, ul sho'xi jonondin garur», g'azallarida, «Kishi holimni bilmas...» «Mannam sho'rida bulbul...» muxammaslarida, «Sabog'a xitob» she'riy maktubida vatan ishtiyoqi va g'urbat iztirobinining turli munosabatlar bilan dardli va ta'sirchan ifoda qilinishi.

«Kishi holimni bilmas...» muxammasining badiiy tahlili. «Sayding qo'yaber, sayyod» musaddasida tutqinlik fojiasidan kuyunish, erksizlikdan qayg'urish, hurlikka tashnalik tuyg'ularining ifodalanishi. Sayd, sayyod, lirik qahramon obrazlari.

Furqatning masnaviylari va nasriy asarlari haqida umumiy ma'lumot.

Furqat asarlarining tiki, uning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni. Furqatning poetik mahorati.

Nazariy ma'lumot: G'azal va musamman.

Abdulla Qodiriy. «O'tkan kunlar» romani (6 soat).

Abdulla Qodiriy o'zbek romanchiligining asoschisi. O'zbek nasrida realistik metodining to'liq qaror topishida Abdulla Qodiriyning xizmati. «O'tkan kunlar» romanining XX asr millat ma'naviy hayoti va ravnaqidagi o'rni. Romanning ijodiy tarixi va taqdiri. Asarda tariximizning «eng kirlik qora kunlari» o'lkaning Rossiya tomonidan istilo etilishi arafasidagi murakkab davri badiiy ifoda etilishi. Romanda ona yurt birligi, mustaqilligi, ravnaqi masalalarining keskin tarzda qo'yilishi. Asardagi El-yurt g'amida yashagan shaxslar: Otabek, Yusufbek hoji obrazlari. Romanda shaxs erki, ishq-muhabbat talqini. Otabek va Kumush sevgi fojiasining ifodasi. Romanning «Ota-ona orzusi», «Unutmaysizmi?», «Qipchoqqa qirg'in» boblaridagi murakkab, chigal vaziyatlarda Otabek, Kumush, Yusufbek hoji bisotidagi asl insoniy fazilatlarining yorqin namoyon bo'lishi. Shaxs ruhiyatini ifoda etish bobida adibning realistik mahorati. O'zbekoyim xarakteri. Romanning til xususiyatlari.

Nazariy ma'lumot:Badiiy asarda milliy ruh ifodasi.

Cho'lpon. She'rlar. «Kecha va kunduz» romani (6 soat).

Cho'lpon hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot.

Cho'lpon she'riyatining yetakchi mavzulari. «Qalandar ishq» she'rida muhabbat tuyg'usi tasviri. «Qalandar ishq» Cho'lpon poetik mahoratining ko'zgusi sifatida. Mazkur g'azalda muhabbat dengizida suzmoqchi bo'lgan oshiq holatining yuksak badiiy ifoda etilganligi. Shoir ijodida erksevarlik g'oyalarining tarannum etilishi. «Ko'ngil», «Kishan», «Vijdon erki» singari she'rlarida hurriyat

mavzuining aks etishi. «Yong‘in» she‘rida mustamlakachilik davridagi Turkiston obrazining yaratilishi. Cho‘lpon she‘riyatidagi erksevarlik g‘oyalarining ifoda etilishi. Cho‘lponning badiiy mahorati.

Nazariy ma‘lumot: Ijtimoiy va intim lirika haqida ma‘lumot.

Oybek. «Qutlug‘ qon» romani. She‘rlar (5 soat).

Oybek haqida ma‘lumot.

Oybek she‘riyatida inson va tabiat tasviri. «Chimyon daftari» she‘riy turkumi. Unda lirik qahramon ruhiy olamining tabiat manazaralari orqali aks etilishi. «Na‘matak» - Oybek lirikasining go‘zal namunasi sifatida. Oybek she‘riyatida fikr va tuyg‘u birligi. Shoir lirikasining badiiy latofati. Shoirning badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahorati.

«Qutlug‘ qon» romanining yaratilish tarixi. Romandagi obrazlar tizimi. Yo‘lchi va Gulnor obrazlarida o‘zbek yoshlariga xos xususiyatlarning badiiy mujassamlanishi. Yo‘lchi va Mirzakarimboy obrazlarida turli ma‘naviy qutbdagi shaxslarga xos xususiyatlarning aks etishi. Romanning badiiy qimmat. Yozuvchining obraz yaratish va asar kompozitsiyasini qurishdagi mahorati. Asar tilidagi badiiy-uslubiy bo‘yoqlar. Adibning badiiy mahorati.

Nazariy ma‘lumot: Roman haqida ma‘lumot.

Odil Yoqubov. «Ulug‘bek xazinasi» romani (5 soat).

Odil Yoqubovning hayoti va ijodi haqida. Adibning o‘zbek romanchiligi rivojidagi xizmati. Yozuvchining tarixiy romanlari: «Ulug‘bek xazinasi» va «Ko‘hna dunyo». «Ulug‘bek xazinasi» romaniga shuhrat keltirgan omillar. Roman haqida Ch. Aytmatov fikri.

«Ulug‘bek xazinasi» romanining badiiy xususiyatlari. Unda tarixiy haqiqat va tarixiy shaxslar hayotining aks etishi. Qahramonlar hayotining qisqa, tig‘iz dramatik pallasi tasviri orqali obrazlar mohiyatining yorqin ochilishi. Ulug‘bek obrazining fojiaiy mohiyati. Abdulatif obrazi. Bu shaxs inqirozi ifodasida jahonning yetuk realistik asarlariga xos xususiyatlarning namoyon bo‘lishi.

«Ulug‘bek iztiroblari», «Padarkush talvasada» nomlari ostida keltirilgan boblar badiiyati haqida o‘quvchilarga tasavvur berish, o‘quvchilarda asarni to‘la holda mutolaa qilishga rag‘bat uyg‘otish. Adibning badiiy mahorati.

Nazariy ma‘lumot: Badiiy adabiyotda ruhiy tahlil.

Abdulla Oripov. «Sarob» («O‘ylarim»), «Bahor», «Genetika», «Bahor kunlarida», «Kuz manzaralari» she‘rlari. «Sohibqiron» (7 soat).

Abdulla Oripovning hayot va ijod yo‘li to‘g‘risida ma‘lumot. A. Oripov - hozirgi o‘zbek she‘riyatining zabardast vakili. Shoir lirikasining o‘ziga xos xususiyatlari. She‘rlaridagi kuchli ehtiros, tabiiylik, fikriy teranlik, poetik mukammallik. Badiiy tadqiqning pishiqligi. She‘riy intonatsiyaning betakrorligi, shiddatkor ohang bilan sokin, osoyishta, samimiy ruhning uyg‘unligi. Shakliy-uslubiy rang-baranglik.

«Sarob» she‘rida shoir hayot yo‘li, ijodiy maslagi, shaxs va jamiyat munosabatlari masalalarining badiiy-lirik talqini. «Bahor kunlarida», «Kuz

manzaralari» she'rlarida tabiatga munosabat orqali lirik qahramon kayfiyatlari, o'ylarining, «Holat» she'rida esa tabiiylikning o'ziga xos yo'sinda ifodalanishi. «Ketganlar yodi bu» she'rida shoir qalbi jilolarining namoyon bo'lishi. «Genetika» she'rida avlod–ajdod munosabatlarining serbo'yoq va ta'sirchan ifodalanishi. Shoirning badiiy mahorati.

Nazariy ma'lumot: Lirik qahramon obrazi.

JAHON ADABIYOTI

Manas – Qirg'iz xalq qahramonlik eposi (4 soat)

Manasning turkiy dostonchilik tarixidagi o'rni va ahamiyati. Undagi yetakchi g'oyaviy-badiiy xususiyatlar. Unda qahramonona vatanparvarlikning o'ziga xos tarzda aks etishi. Doston badiiyati.

Hofiz Sheroziy. G'azallar (3 soat)

Hofiz Sheroziyning hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot. Hofiz g'azallarining jozibasi, ularning isyonkor ruhi. “Agar ko'nglimni shod etsa...”, “Go'zal gul chog'i yashnar...” g'azallari tahlili. Shoirning san'atkorligi.

Vilyam Shekspir. «Otello» tragediyasi (4 soat).

Shekspir hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot. Uning jahon dramaturgiyasi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi. «Otello» asarida insoniy tuyg'ular, oila sha'ni bilan bog'liq abadiy muammolarning tig'iz konfliktlar asosida badiiy talqin etilishi. Otello obrazida aks etgan inson ruhiyatining murakkab jihatlar. Otelloning o'z-o'zi bilan ruhiy olishuvi. Otello va Dezdemon, Otello va Yago munosabatlari. Asarda rashk, burch va muhabbat mavzularining tutash tasviri. Makr va samimiyat, ishonch va shubha, baxt va hasad, omad va omadsizlik o'rtasidagi ziddiyatlarning badiiy talqini. Asarning o'zbek tiliga G'.G'ulom tomonidan mohirona tarjima etilishi. “Otello” spektaklining o'zbek adabiyoti va teatr san'ati taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri.

Nazariy ma'lumot: Tragik obrazlar va hayot haqiqati.

Henrih Heyne. “O'tkir bo'lsa ko'zlaring agar...”, “O, sen qo'rqma, chekmagil tashvish...”, “Bo'sh hayollar chekinmish olis”, “Suvdan boshin chiqarib asta...” she'rlari (3 soat)

Taniqli nemis shoiri Henrih Heyne hayoti va ijodi to'g'risida qisqacha ma'lumot. Shoirning Sharq she'riyatiga oshuftaligi to'g'risida. Ishqiy mavzuning shoir she'rlarida etakchi ekanligi hamda tabiat hodisalari bilan uyg'unlikda tarannum qilinganligi. Shoir qalb kechinmalarining she'rlarida samimiy va haqqoniy ifoda etilganligi. Henrih Heyne she'rlarining badiiy xususiyatlari hamda o'zbek tiliga o'g'irgan tarjimonlar mahorati to'g'risida.

A.S.Pushkin. “Yevgeniy Onegin” she'riy romani (4 soat)

Shoirning hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot. Pushkinning rus adabiyoti va adabiy tilining asoschisi ekanligi. “Evgeniy Onegin” she'riy romani. Asarda XVI asrdagi rus xalqi hayotining yorqin ifodalanishi. Evgeniy, Lenskiy va

Tatyana obrazlari. Asarning g'oyaviy yo'nalishi va badiiy xususiyatlari. Pushkin ijodining

o'zbek she'riyati taraqqiyotiga, shu jumladan, o'zbek adabiyotida she'riy roman janrining paydo bo'lishiga ta'siri

Nazariy ma'lumot: She'riy roman to'g'risida tushuncha

Chingiz Aytmatov. «Asrga tatigulik kun» romani (5 soat).

Ch. Aytmatovning hayoti va ijodi haqida ma'lumot. Yozuvchining XX asr jahon adabiyoti taraqqiyotida tutgan o'rni. Adib romanlari, jumladan, «Asrga tatigulik kun» asari haqida ma'lumot. «Asrga tatigulik kun» romanining badiiy xususiyatlari. Asar markazidagi Edigey obrazi, uning mashaqqatli hayot yo'li, ruhiy olami orqali asr dramalarining ifodalanishi. Asarda hodisalarning falsafiy-badiiy talqini.

Romanda Edigeyning yaqin do'sti Kazangap vasiyatini ro'yobga chiqarish yo'lidagi zahmatlari ifodasining ta'sirli berilishi. Unda jamiyatdagi ma'naviy inqirozlar mohiyatining ochilishi.

Nazariy ma'lumot: Pafos haqida tushuncha.

Mustaqillik davri adabiyoti (xotima o'rnida) (4 soat)

XX asrning 90-yillardagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot. O'zbekistonning Mustaqil davlat deb e'lon qilinishi. O'zbek adabiyoti tarixida mustaqillik davri adabiyoti degan yangi bosqichning boshlanishi. Shu davr adabiyotining asosiy tamoyillari, mavzulari, obrazlari. She'riyat, nasr va dramaturgiyada yangi tarixiy davr hayotining haqqoniy tasvir etila boshlashi. Tarixiy mavzu va tarixiy shaxslar obraziga murojaat. Tarixiy o'tmishning milliy istiqlol mafkurasi asosida o'rganilishi. Sotsialistik realizm metodining o'z kuchini yo'qotishi. Adabiyotda haqqoniylik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik g'oyalarining ustuvor ahamiyatga ega bo'lishi. Shu davr adabiyotida yangi badiiy izlanishlar.

Asarlar tahlili uchun – 98 soat

Yozma va og'zaki ijodiy ishlar uchun – 34 soat

Takrorlash uchun – 4 soat.

O'quvchilar yod olishi lozim bo'lgan asarlar:

«Alpomish» dostonidan parcha.

Navoiy. «Xamsa»dan parchalar.

Bobur. «Yoz fasli, yor vasli», «Sendek menga bir» g'azallari, ruboiylari.

Mashrab. «Ishq vodiysidan bir», «O'rtar» g'azallari.

Ogahiy. «Iloho, har kuning», «Mushkin qoshining hay'ati» g'azallari.

Furqat. «Chaman sahnida derlar», «Surmadin qoshlar qaro» g'azallari.

Cho'lpon. «Vijdon erki», «Qalandar ishq» she'rlari.

Oybek. «Na'matak» she'ri.

A.Oripov. «Sarob», «Holat» she’rlari.

Henrih Heyne she’rlaridan namuna.

A.S.Pushkin. “Yevgeniy Onegin” she’riy romanidan

Hofiz Sheroziy. Agar ko‘nglimni shod etsa...”.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

**IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR VA FANLAR
CHUQURLASHTIRILIB O‘QITILADIGAN SINFLAR UCHUN
ADABIYOTDAN YONDOSH DASTURLAR**

(V-IX Sinf)

TOSHKENT – 2011

UQTIRISH XATI

Badiiy adabiyot–soʻz sanʼati boʻlib, toʻgʻri ifodali oʻqilgandagina kishida estetik zavq uygʻotadi, uning maʼnaviy olamini boyitadi. Ifodali oʻqish adabiyotlarni aniq va koʻrgazmali oʻqitishning birinchi hamda asosiy shakli boʻlib, koʻz bilan koʻradigan har qanday koʻrgazmalilikdan muhimroq hisoblanadi. Ifodali oʻqish, ayniqsa, asarning mazmunini chuqur tushunishda, badiiy xususiyatlarini ochishda katta ahamiyatga ega.

Barcha janrlardagi asarlar bir xilda oʻqilmaganidek, hamma ham bir xilda ifodali oʻqiy olish qobiliyatiga ega emas. Ifodali oʻqishga oʻrgatish tarbiyaviy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega boʻlib, asar mazmunini puxta oʻzlashtirishda, uning estetik mohiyatini ochishda yaqindan yordam beradi.

Badiiy adabiyot paydo boʻlishi bilan uning ifodali oʻqilishi, ogʻzaki ijrochiligi ham maydonga kelgan. Badiiy adabiyotning shakllanish bosqichlari gʻoyat murakkab, rang-barang boʻlgani kabi, uning ijrochilik taraqqiyoti ham turli-tumandir. Chunonchi, qadimda badiiy adabiyot yaratuvchilari ayni chogʻda uning ijrochilari sifatida ham dong taratganlar. Badiiy soʻz sanʼatkori xalq oʻrtasida ijodkor emas, balki ijrochi sifatida koʻproq eʼtiborga ega boʻlgan. «Avesto»ning yaratuvchilari, bora-bora uning professional ijrochilariga aylanib ketgan koinlar xalq orasida adiblar sifatidagina emas, balki jonli soʻz sehri bilan moʻʼjizalar koʻrsatuvchi mutaxassislar sifatida ham katta eʼtibor qozonganlar.

Oʻzbek soʻz ijrochiligi sanʼatining sarchashmalari tarixning juda uzoq qatlamlariga borib taqaladi. Oʻrta Osiyoda shoirlar bilan bir qatorda, ularning asarlarini majlis, anjumanlarda, xalq orasida ijro etuvchi sanʼatkorlar-roviylar toifasi paydo boʻlgan. Roviylar- badiiy oʻqish ustalari boʻlib, xaloyiq oʻrtasida zamondosh va oʻtmish shoirlari sheʼrlarini maxsus ohang bilan oʻqiganlar. Qadimda badiiy soʻz ijrochiligining oʻziga xos maktabini tashkil etuvchi roviylar toifasi katta shon- shuhratga ega boʻlgan. XV asrga kelib, mustaqil badiiy ijrochilik koʻrinishlari va ularga mansub ijrochilar toifasi paydo boʻldi.

Alisher Navoiy bu davrga kelib badiiy soʻz ijrochiligi sanʼatining voizlik(notiqlik), qissaxonlik, bazlagoʻylik (latifagoʻylik), dostonxonlik, qasidaxonlik, gʻazalxonlik sanʼati shakllanib yetilganligi haqida mufassal maʼlumot beradi. Husayn Voiz Koshifiy, Muin Voiz Xiraviy, Mulla kalon Voiz Samarqandiy, Mavlono Riyoziy, Bahovuddin Valad, Jalolliddin Rumiy kabi zabardast soʻz sanʼatkorlari badiiy soʻz ijrochiligining Sharqda mashhur boʻlgan vakillaridir.

O'zbek badiiy so'z ijrochiligi san'atiga xos bo'lgan bedilxonlik, navoiyxonlik, fuzuliyxonlik, mashrabxonlik bilan birga qissago'ylik, hikoyago'ylik, latifago'ylik, ertakchilik va askiyachilikning taraqqiyoti bu san'atning juda qadimiy va boy tarixga, ma'lum an'anaga ega ekanligini anglatadi.

O'rta Osiyo xalqlari pedagogikasi tarixida ifodali o'qish san'ati alohida ahamiyat kasb etgan. O'zbek pedagogikasi tajribalari ifodali o'qishning quyi sinflardan boshlab mashq qilish, uni keyinchalik asta-sekin takomillashtirib borishni taqozo etadi. Bu bejiz emas. Zero, ifodali o'qish san'ati bolalarning badiiy didini shakllantiribgina qolmay, ularning ma'naviy yuksalishida, xotirasining mustahkamlanishida ham yetakchi o'rin tutadi.

O'tmishda she'rni tushunib o'qishga katta e'tibor berilganligini Alisher Navoiy ham ta'kidlagan. Buyuk shoir o'zi yoshligida va yigitlik paytlarida o'tmish hamda zamondosh shoirlarning she'rlaridan ellik ming bayt, ya'ni yuz ming misra yod bilgan va ulardan katta zavq olgan. Bu haqda shoir shunday deydi: «Bulardan she'rda sehr soz va nasrda fusun pardoz shuaroning shirin ash'ori va rangin ab'yotidan ellik mingdan ortuq yod tutubmen va alar zavqi va xushhollig'idin o'zumni ovutibmen»

Ifodali o'qish san'atiga bo'lgan chuqur ehtiromni rus pedagogikasi tarixida ham ko'rish mumkin. A.S.Pushkinning «Boris Godunov» asarini uning o'z tilidan eshitgan M.P.Pogodin buyuk shoirning badiiy o'qish mahorati haqida quyidagilarni yozgan: «Bu o'qish bizning hammamizda qanday taassurot qoldirganini tasvirlab berish qiyin. Biz bu erga Pushkinni eshitgani kelgan edik... U Ivan Grozniy ibodatxonasida o'qilgan «Tangri uning jafodiyda va tug'yonli qalbiga orom ato etgay...» deb boshlanuvchi duoni o'qiganda, go'yo hammamiz aqldan ozganday qotib qoldik. Kimlardir otashdek lovullasa, kimlardir muz qotdi. Sochlarimiz tippa-tik bo'lib ketdi».

XX asr boshlarida O'zbekistonda ham ifodali o'qishga katta ahamiyat berila boshlandi. Hamza, Abdulla Avloniy, Mannon Uyg'ur singari yetuk pedagog- rejissyorlar, I. Inoyatov, H. Yunusov, S.Qori kabi talantli yoshlar badiiy o'qishni sahnaga olib chiqqan targ'ibotchilar bo'ldilar. Ular sahnalarda, spektakllar boshlanishidan oldin, parda ko'rinishlari orasida sahna oldiga chiqib she'rxonlik va diklamatsiyalar qilganlar.

Hamza, Abdulla Avloniylar o'zlari ochgan yangi usul maktablari uchun «Yengil adabiyot», «Birinchi muallim», «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» kabi o'qish kitoblari yaratilgan ediki, ularda ifodali o'qishga alohida e'tibor berilgan.

Bugunga kelib, ifodali o'qish san'atining bolalar bog'chasidan boshlab oliy o'quv yurtlarigacha dastur asosida o'rganilishining yo'lga qo'yilganligi, fanning bu sohasiga oid turli risola va qo'llanmalarining yaratilayotganligi, ta'lim tizimida bu sohaning yangi-yangi metodlari ishlab chiqilayotganligi ifodali o'qishga e'tiborning yorqin namunasidir.

O'qituvchi o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish uchun o'zi namuna bo'la olishi, faollik ko'rsatishi, ko'plab she'riy, nasriy va dramatik asarlardan parchalarni yod bilishi va maromida ifodali o'qiy olishi, ifodali o'qish qoidalarini puxta o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

Dasturda ifodali o'qishning nazariy va amaliy masalalari, unga bog'liq holda nutq texnikasi, unli va undosh tovushlar talaffuzi hamda badiiy asarlarning ifodali o'qish metodikasi bo'yicha fikr yuritildi.

Shuningdek, dastur bo'yicha taxminiy rejalashtirish berilgan bo'lib, uning ayrim mavzularini o'zgartirish, amaliy mashg'ulotlarni aniq maqsad bo'yicha nomlash, bunga ijodiy yondashish mumkin.

Ifodali o'qish

Dastur

5-sinf (34 soat)

Kirish. Ifodali o'qish san'ati(1 soat)

Ifodali o'qishning san'at ekanligi. Uning asar mazmunini tushunishdagi, badiiy xususiyatlarini ochishdagi ahamiyati.

Ifodali o'qish tarixidan.(1 soat)

Badiiy adabiyot paydo bo'lishi bilan birga unig og'zaki ijrochiligi ham maydonga kelganligi. O'zbek badiiy ijrochiligi san'atiga xos dostonchilik, navoiyxonlik, fuzuliyxonlik, mashrabxonlikning ifodali o'qish tarixidagi ahamiyati.

Nutq texnikasi. Ovoz va uning hosil bo'lish manbalari. (1soat).

Nutq texnikasiga amal qilishning ifodali o'qishdagi o'rni. Kishilarning o'zaro muomala- munosabatida ovozning o'rni. Ovozning hosil bo'lish manbalari. Tembr. Diksiya.

Tovushlarning hosil bo'lishi. Nutq organlari (2 soat).

Tovushlarning hosil bo'lishi, farqlanishi, bunda nutq organlari hamda tovush tebranishining o'rni.

Unli tovushlar talaffuzi. (1 soat)

Unli tovushlarning turli vaziyatlarda turlicha talaffuz etilishi va buning ifodali o'qishdagi ahamiyati.

Undosh tovushlar talaffuzi.(1soat)

Portlovchi, sirg'aluvchi qorishiq undoshlar va ularning talaffuzi. Undosh tovushlar talaffuzining ifodali o'qishda qo'llanishi lozim bo'lgan qoidalar asosida yoritilganligi.

Urg'u. So'z urg'usi. Mantiqiy urg'u.(2 soat)

Urg'u ifodali o'qishning asosiy vositalaridan ekanligi. O'zbek tilida urg'uning vazifasi ancha kengayganligi. Uning ma'noni farqlashdagi, kuchaytirishdagi ahamiyati. So'z urg'usi va Mantiqiy urg'u? ularning far

Badiiy asarlarni ifodali o'qish. (1 soat).

Badiiy asarni ifodali o'qish, avvalo, muallifning ruhiyatini, hissiyatini ifodalash ekanligi. Ifodali o'qishning asar mohiyati, uning tagma'nolarini tushunishga yordam berishi, inson hissiyoti, ruyg'ularini bezovta qilish hamda ma'naviyatini rivojlantirishdagi ahamiyati.

She`riy asarlarni ifodali o`qish. (1 soat)

She`riy matnlarni ifodali o`qishning insonga estetik zavq berish, tuyg`ularini, hissiyotlarini nafislashtirishdagi ahamiyati

Nasriy asarlarni ifodali o`qish (1 soat)

Ifodali o`qishning nasriy matnlarni chuqurroq tushunish, ma`nolarni teran anglash va badiiy zavq olish vositasi ekanligi.

Tez aytishlar (1 soat)

Tez aytishlarni ifodali o`qish o`quvchi nitqini rivojlantirish va lug`at boyligini oshirish omili ekanligi

Ertaklarni ifodali o`qish (1 soat)

Ertaklarni ifodali o`qish o`quvchining dunyoqarashi, olam, tabiat haqidagi bilimlarini kengaytirish vositasi ekanligi.

Masallarni Ifodali o`qish(1soat)

Mavzularni o`rganish uchun – 15 soat

Amaliy mashg`ulotlar uchun – 17 soat

O`rganilganlarni takrorlash uchun– 2 soat

«Ifodali o`qish» dasturi bo`yicha

taxminiy rejalashtirish

(5-sinf. 34 soat)

№	Mavzu	Soat
1.	Kirish. Ifodali o`qish san`ati. Ifodali o`qish tarixidan.	1
2.	1-DNI. “Ifodali o`qish mashqi”	1
3.	Amaliy mashg`ulot. Quyi sinflarda yodlangan badiiy matnlarni ifodali o`qish	1
4.	Nutq texnikasi Ovoz va uning hosil bo`lish manbalari.	1
5.	Amaliy mashg`ulot. Bahor va Navro`z haqidagi she`riy va nasriy matnlarni ifodali o`qish, deklamatsiy qilish	1
6.	Ovoz va nafasni birlashtiruvchi mashqlar	1
7.	Amaliy mashg`ulot. «To`maris» va «Shiroq» afsonalaridan parchalarni ifodali o`qish	1
8.	Unli tovushlar talaffuzi.	1
9.	Amaliy mashg`ulot. Unli va jarangli tovushlar ko`proq ishtirok etgan sher bandlaridan ifodali o`qish	1
10.	Lablangan va lablanmagan unli tovushlar talaffuzi.	1
11.	Amaliy mashg`ulot. «Oygul bilan Baxtiyor» dostonidan parchalar ifodali o`qish	1
12.	Undosh tovushlar talaffuzi.	1
13.	Amaliy mashg`ulot. “Uch og`a-ini botirlar” ertagidan parchani ifodali o`qish	1

14.	Portlovchi undoshlar talaffuzi	1
15.	Amaliy mashg'ulot. «Susambil» ertagini ifodali o'qish	1
16.	Sirg'aluvchi undoshlar talaffuzi	1
17.	Amaliy mashg'ulot. «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasini ifodali o'qish	1
18.	Qorishiq undoshlar talaffuzi	1
19.	Amaliy mashg'ulot. «Kichkina shahzoda» ertagidan parcha o'qish	1
20.	Urg'u. So'z urg'usi. Mantiqiy urg'u	1
21.	Amaliy mashg'ulot. Usmon Nosir she'rlaridan ifodali o'qish	1
22.	Badiiy asarlarni ifodali o'qish.	1
23.	Amaliy mashg'ulot. Badiiy matnlardan parchalar o'qish	1
24.	She'riy asarlarni ifodali o'qish.	1
25.	Amaliy mashg'ulot. Mirtemir, E. Vohidov, A. Oripov she'rlaridan parchalarni ifodali o'qish	1
26.	Nasriy matnlarni ifodali o'qish.	1
27.	Amaliy mashg'ulot. «Hellados» hikoyasidan parcha o'qish	1
28.	Tez aytishlar	1
29.	Amaliy mashg'ulot.	1
30.	Ertaklarni ifodali o'qish.	1
31.	Amaliy mashg'ulot. Sinf dan tashqari o'qilgan badiiy matnlardan ifodali o'qish	1
32.	Masallarni Ifodali o'qish. Ezop masallaridan o'qish	1
33.	2-DNI. «Kim matnni ifodali va ta'sirchan o'qiydi?» musobaqasi.	1
34.	Amaliy mashg'ulot.	1

Dastur

6-sinf (34 soat)

Kirish. (1 soat).

Ifodali o'qishning san'at ekanligi va uning inson ruhiyatini tarbiyalash, estetik zavq berishdagi ahamiyati

5-sinfda o'tilganlarni takrorlash. (2 soat)

Nutq texnikasi. Ovoz va uning hosil bo'lish manbalari, ovoz va nafasni birlashtiruvchi mashqlar, unli tovushlar talaffuzi, undosh tovushlar talaffuzi, Urg'u. So'z urg'usi. Mantiqiy urg'u Urg'u ifodali o'qishning asosiy vositalaridan ekanligi

Pauza haqida ma'lumot. (2 soat)

Pauza turlari. Grammatik pauza. Mantiqiy pauza. Psixologik pauza.

Pauzaning ifodali o'qishdagi, so'z guruhlarini, matn ma'nosini aniq va lo'nda ifoda etishdagi o'rni.

Intonatsiya (1soat)

Intonatsiyaning nutq tovlanishi vositasi ekanligi. Uning ifodali o'qishdagi ahamiyati.

Temp va ritm. (1soat)

Temp va ritmning asarning estetik mohiyatini ochishdagi hamda emotsional ta'sirchanlikni oshirishdagi ahamiyati

Badiiy asarlarni ifodali o'qish. (1soat).

Badiiy asarni ifodali o'qish o'quvchining ruhiyatini, hissiyotini tarbiyalash va nafislashtirish vositasi ekanligi.

Barmoq tizimidagi she'rlarni ifodali o'qish yo'llari. (1soat)

Erkin vazndagi she'rlarni ifodali o'qish qoidalari. (1 soat)

Dramatik asarlardan parchalarni ifodali o'qish. (1soat)

Masallardan parchalarni obrazga kirib o'qishni o'rganish.(1soat)

Kichik sahna asarlarini rollarga bo'lib o'qish. (1soat)

Aruz vaznidagi she'riy asarlarni ifodali o'qishni o'rganish. (1soat)

Mavzularni o'rganish uchun – 15 soat

Amaliy mashg'ulotlar uchun –17

soat

Takrorlash 2 soat

**«Ifodali o'qish» dasturi bo'yicha taxminiy rejalashtirish
(6-sinf. 34 soat)**

№	Mavzu	Soat
1.	Kirish. Ifodali o'qish san'ati	1
2.	5-sinfda o'tilganlarni takrorlash.	2
3.	Amaliy mashg'ulot. Badiiy matnlardan ifodali o'qish	2
4.	1-DNI. "Ifodali o'qish mashqi"	1
5.	Pauza haqida ma'lumot. Pauza turlari. Grammatik pauza.	1
6.	Amaliy mashg'ulot. A.Qahhorning «Bemor» hikoyasini o'qish	1
7.	Mantiqiy pauza. Psixologik pauza.	2
8.	Amaliy mashg'ulot. H. Olimjonning «O'rik gullaganda» sherini ifodali o'qish	2
9.	Intonatsiya.	1
10.	Amaliy mashg'ulot. E. Vohidovning «Nido» dostonidan parcha o'qish	2
11.	Temp va ritm.	1
12.	Amaliy mashg'ulot. «Zarbulmasal»dan parcha o'qish	1
13.	Badiiy asarlardan parchalarni ifodali o'qishni o'rganish.	1
14.	Amaliy mashg'ulot. O'. Hoshimov, O.Yoqubov, Musa Jalil asarlaridan parchalar o'qish	2
15.	Barmoq vaznidagi she'rlarni ifodali o'qish yo'llari.	1
16.	Amaliy mashg'ulot. M. Yusuf, E. Vohidov, A. Oripov asarlaridan namunalar o'qish	2
17.	Aruz vaznidagi she'rlarni ifodali o'qish yo'llari.	1
18.	Amaliy mashg'ulot. Bobur ruboiylaridasn namunalar o'qish	1
19.	Erkin vazndagi she'rlarni ifodali o'qish yo'llari.	1

20.	Amaliy mashg'ulot. G'. Gulomning «Sen etim emassan» she'rini ifodali o'qish	1
21.	Masallardan parchalarni obrazga kirib o'qishni o'rganish.	2
22.	Amaliy mashg'ulot. «Tuya bilan bo'taloq», «Bo'ri bilan qo'zichoq» masallarini o'qish	2
23.	2-DNI. «Kim matnni ifodali va ta'sirchan o'qiydi?» musobaqasi	1
24.	Kichik sahna asarlarini rollarga bo'lib o'qishni o'rgatish.	1
25.	Amaliy mashg'ulot.	1
26.	Takrorlash	1

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.«Ifodali o'qish» K. Oripov, M. Obidova, T., «O'qituvchi» 1982 y.
- 2.«O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyati asoslari». Yo. Tojiyev va b.T., ToshDU 1994 y.
- 3.«Notiqlik san'ati asoslari» S. Inomxo'jayev, T., «O'qituvchi» 1982y
- 4.«Azbuka vejlivosti» A.V. Gangus, Moskva., «Pedagogika» 1984y.
- 5.«4-7 sinflarda ifodali o'qish» B.Turdiyev, T. «O'qituvchi» 1994y.
- 6.«Aruz saboqlari» D. Farmonova «Til va adabiyot ta'limi» 2000y. 3-son.
7. O. Safarova, «Tez, burro va tushunarli o'qish muvaffaqiyat garovi» «Til va adabiyot ta'limi» 2002 y. 4 son

NOTIQLIK SAN'ATI

Uqtirish xati

Ixtisoslashgan maktablarda «Notiqlik san'ati» fanini o'qitish o'ziga xos ahamiyatga ega. Notiqlik og'zaki nutq jarayoni bilan bog'liq hodisa bo'lgani uchun so'zlovchining kimligi, bilim darajasi, dunyoqarashi va man'aviy-ma'rifiy dunyosi bevosita nutqida namayon bo'ladi. Shu ma'noda o'quvchini notiq sifatida tarbiyalash, o'zbek tilining barcha qonun-qoidalari asosida so'zlashga, ma'ruza qilish, matnni qayta hikoya qilish, she'r o'qish san'atiga o'rgatish foydalidir.

Gohida yozma nutqi nihoyatda go'zal kishilar notiqlik san'atining sirlaridan bexabarligi sababli fikr-mulohazalarini og'zaki bayon qilishga qiynaladilar. Vaholanki, o'zbek tili dunyodagi eng boy va eng go'zal tillardan biridir. Bu tilda - ham yozma, ham og'zaki ravishda har qanday fikrni bayon qilish mumkin. Faqat bunga notiqlik san'ati sirlarini egallash, turli amaliy mashqlar yordamida erishiladi.

Mazkur dasturda masalaning ana shu qirralariga e'tibor qaratildi. Shu bilan birga notiqlik san'atining tarixi uchun ham ayrim soatlar ajratildi. Zero, har qanday fan sohasining tarixi, mashhur namoyandalari borligi ma'lum.

DASTUR

7-sinf (34 soat)

Kirish (1 soat).

Notiqlik san'ati» fanining maqsad va vazifalari, tarixi, notiqlikning o'ziga xos qirralari. Notiqlik – bu nutqning oqzaki shakli ekanligi. O'zbekonda nutqqa e'tiborning kuchayganligi. O'zbek tilida fikr-mulohazalarni ravon ifodalashning muhimligi.

Notiqlik san'ati tarixiga bir nazar (1 soat).

G'arbda notiqlik ritorika atamasi bilan nomlanganligi. Notiqlik san'atining qadim Yunonistonda shakllanganligi. Bu san'atning bevosita davlat ishlari bilan bog'liq rasmiy doiralarda nutq so'zlash bilan bog'liqligi. Mashhur notiqalar haqida ma'lumot. Aristotel' (384-322), Demosfen(384-322) va Siseron (103-43) faoliyati.

Sharq notiqlik san'ati tarixidan (1 soat).

Sharq dunyosida, xususan, musulmon olamida notiqlik san'ati bevosita muqaddas kitob - qur'oni Karimni tilovat qilish, hadisi sharifni tushuntirish bilan bog'liqligi. Sharqda notiqalar voiz – va'z, ma'ruza aytuvchi deb yuritilganligi. Sharqdagi mashhur voizlar to'g'risida ma'lumot. Husayn Voiz Koshifiy va boshqa mashhur shaxslar faoliyati.

O'zbek adiblari notiqlik haqida (1 soat)

Mashhur o'zbek adiblarining notiqlik, nutq madaniyati va odobi to'g'risida aytgan fikrlarida boxabarlikning ahamiyati. Alisher Navoiy, Bobur, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor va boshqa ijodkorlar notiqlik haqida.

Notiq kim? (1 soat)

Go'zal nutqiy sifatga ega so'zlovchining notiq deb atalishi. Notiqlik ham tug'ma iste'dod bo'lishi. San'atkor notiq nutqining o'ziga xos qirralari. Notiqlik san'ati va san'atkor nutqi.

Notiqlik va muomala odobi (1 soat)

Notiqning odob-axloq qoidalariga rioya qilishi. Muomala odobi, madaniyatining bevosita nutqda namoyon bo'lishi. qo'pol nutqning zararli oqibatlari.

Notiq va tinglovchi (1 soat)

Nutqning kimgadir qaratilishi. Notiq tinglovchilarning yoshini, kasb-korini, muhitini, vaqtini inobatga olishi lozimligi.

Ommabop nutq (1 soat)

Ommabop nutqning ko'pchilik xalq ommasiga qaratilganligi. Bunday nutq turida ortiqcha jimjimadorlikka berilish, uzundan –uzun jumlar tuzish yaxshi natija bermasligi.

Rasmiy nutq (1 soat)

Rasmiy nutqning jiddiyligi. Bunday nutqni so'zlovchi auditoriyani inobatga olishi lozimligi. Nutqning mazmunli, tushunarli va qisqa bo'lishiga erishish yo'llari.

She'riy nutq (1 soat)

She'riy nutqning muayyan o'lchovga egaligi. She'riy nutqda qofiya va vazn masalalari. She'r o'qish qoidasi va notiqlik.

Ertak va masalni qayta gapirshib berish (1 soat)

Ertak va masallardagi obrazlar masalasi. Notiqning ularni qayta so'zlash jarayonida obrazga kirish mahorati xususida.

Notiq nutqining bezagi (2 soat)

Nutqni bezaydigan omillar xususida. Frazologik birliklar, maqol, hikmatli so'z va ichki saj' nutqning ta'sirchanligini oshiradigan asosiy omillar sifatida.

Xulosa (1 soat)

«Notiqlik san’ati» fani yuzsidan xulosalar bayon qilish. Mazkur fanni o’rganish jarayonidagi bilimlarni baholash. O’quvchilardagi notiqlikka bo’lgan qiziqishni rag’batlantirish.

Mavzularni o’rganish uchun 15 soat
Amaliy mashg’ulotlar uchun 17 soat
O’rganilganlarni nazorat qilish 2 soat

Tuzuvchi: B. KARIMOV
f.f.d. professor

Adabiyotlar:

1. Til to’g’risidagi qonun
2. Alisher Navoiy «Muhokamatul-lug’atayn». T. 1982.
3. Aristotel’. «Ritorika». M. 1978.
4. Inomxo’jaev S. Notiqlik san’ati asoslari. T. 1982.
5. Rustamov A. So’z xususida so’z. T. Fan. 1987.
6. R. Qo’ng’urov, E. Begmatov, Yo. Tojiev. «Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari». T. 1992.
7. Q. Oripov, M. Obidova. «Ifodali o’qish». T. O’qituvchi 1994.
8. N. Jumaxo’ja. Istiqlo’l va ona tilimiz. T. Sharq. 1998.
9. A. Ortiqov. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. T. 2002.
10. R. Jumaniyozov, S. Salimov. G’oyaviy tarbiyada notiqlik san’ati. T. 2002.

«Notiqlik san’ati» dasturi bo’yicha
taxminiy rejalashtirish
7-sinf (34 soat)

N. Gulomova

№	Mavzu	Soat
1	Kirish	1
2	Notiqlik san’ati tarixiga bir nazar .	1
3	Amaliy mashg’ulot.	1
4	Sharq notiqlik san’ati tarixidan.	1
5	Amaliy mashg’ulot. «Yaxshilik va ezgulik» haqida qisqa nutq tayyorlatish va mashq qildirish	1
6	O’zbek adiblari notiqlik haqida	1
7	Amaliy mashg’ulot. «Chin o’rtoq» mavzusida nutq tayyorlatish	1
8	Notiq kim?	1
9	Amaliy mashg’ulot.	2
10	Notiqlik va muomala odobi	1
11	Amaliy mashg’ulot. «Sharqona muomala odobi»	2
12	Notiq va tinglovchi	1
13	Amaliy mashg’ulot	2
14	1-DNI. «Notiq qanday bo’lishi kerak?»	1
15	Ommabop nutq.	1
16	Amaliy mashg’ulot. «Til –millat ko’rki» mavzusida nutq tayyorlash va muhokama qilish	2
17	Rasmiy nutq.	1

18	Amaliy mashg'ulot. «Konstitutsiya- baxtimiz»	2
19	Sheriy nutq	1
20	Amaliy mashg'ulot. «She`r tahlili»	2
21	Ertak va masalni qayta gapirshib berish	1
22	Amaliy mashg'ulot. Badiiy matnlar sharhi	2
23	2-DNI. Biror mavzuda nutq tayyorlash	1
24	Notiq nutqining bezagi	2
25	Amaliy mashg'ulot. «Notiqlikda badiiy –tasviriyy vositalardan foydalanish»	1
26	Xulosa	1

«Notiqlik san`ati» yondosh dasturi (8-9-sinf)

Uqtirish xati

So‘z - insonning buyuk qurollaridan biri. O‘rnida, sidqidildan va vaqtida aytilgan oddiygina so‘z qudratli va yengilmas kuchga aylanadi. U so‘zlovchining o‘zini qiziqtirib yuborishi, uni va atrofidagilarni o‘z nafisligi bilan mahliyo etishi mumkin. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy “Ko‘ngil mag‘zanining qulfi til va ul mag‘zanning kalidin so‘z bil”, degan edi.

So‘zdan o‘rnida ehtiyojga ko‘ra foydalanish, jamoat oldida so‘zlab, biror narsani tushuntirish yoki isbotlab berish zaruriyati qadim-qadim zamonlardan beri odamlarni dilkashlikka, so‘zamollikka rag‘batlantirib kelgan.

Sharqda sultonlar huzurida saroy nodimlarining so‘zamol, kishilarning chiroyli, farahli va yoqimli so‘zlashlari talab etilgan. Ayrim manbalarda shunday nihoyatda gapga chechan, so‘zamol, maxsus notiqlar bo‘lganligi qayd etiladi. Biroq notiqlikning qadimgi namunalari yozma shaklda bizga qadar yetib kelmagan. Shayx Sa‘diy Sheroziy “Guliston” asarida Sahboni Voilning voizlik san`ati haqida shunday deydi: “Sabhoni Voil kamoli fasohatda (til boyligi, nutqining chiroyi, notiqlik darajasi) ul g‘oyat edi, derlarki har majlisda o‘lturub so‘zlar bo‘lsa, bir lavz (so‘z) ni takror qilmas erdi. Ul maoniyya qachon ehtiyoj bo‘lsa, bir o‘zga iborat (ifoda) bilan ado qilur edi”.

“Notiqlik san`ati bu qalblarni so‘z bilan zabt etishdir”, - degan edi Suqrot. Faylasufning fikricha, aynan shu san`at insonlarga ta`sir etishning yagona va asl yo‘lini ko‘rsatadi. Ma’noga ega bo‘lgan, unga to‘yingan so‘zgina qudratli bo‘lib, dunyoning sirlariga olib boruvchi eshikni ocha oladi.

Lekin bu soha bugungi kunda dolzarb muammoligicha qolmoqda. Maktablarda bu san`atga e’tiborning kamligi o‘zining salbiy oqibatlarini ko‘rsatib kelmoqda. E’tibor berilsa maktablarda, teleekranlarda, o‘zaro suhbatda, o‘quvchining mavzu yuzasidan berilgan savollarga javoblarida yoshlar nutqining nuqsonli ekanligi, chaynalib, o‘z fikrini aytolmasliklarining guvohi bo‘lish mumkin. Chunki o‘quvchi nutqi va uning ravonligiga bo‘lgan e’tibor kam. Agar rus bolalarining, hatto bog‘cha yoki maktab o‘quvchisini televizor orqali bo‘ladigan savol-javoblarini kuzatadigan bo‘lsak, ular nutqida tutilmaydi, dovdiramaydi, bu nimadan? Yoshlardagi qusurga kim sababchi? – degan savol

tugʻiladi. Endigina tili chiqayotgan bolaning savollari koʻp, olamni bilishga boʻlgan ishtiyoqi kuchli boʻladi, ota-onalar esa bu qiziqishni eʼtiborga olishmaydi, “Kamroq gapir” deya tanbeh berishadi. Buni bartaraf etish uchun esa avvalo, oiladan tortib bogʻcha va maktablarda ham bolalarimiz nutqidagi kamchiliklarga eʼtibor berish, ularni qiziqtirgan har bir narsaga eʼtiborli boʻlish, tushuntirish, birorta soʻzni notoʻgʻri talaffuz qilsa, yoki nooʻrin ishlatsa, albatta, erinmasdan ulardagi shu kamchilikni toʻgʻrilash lozim.

Mazkur dastur yuqoridagi maqsadlardan kelib chiqib, nutqni sozlash, buning uchun tinmay izlanishni nazarda tutgan holda tuzildi. Dasturda nutqning ravon, aniq, taʼsirchan boʻlishi uchun amal qilinishi lozim boʻlgan qoidalar hamda 8-sinf dasturida Sharq notiqlik sanʼati, 9-sinf dasturida esa Farb notidlari, ularning faoliyatlari boʻyicha maʼlumot berish va amaliy mashgʻulotlar tashkil etish nazarda tutildi. Shu bois Sharq va Gʻarb notiqlik sanʼati vakillarining nutq nafisligi, nazokat bilan soʻlash haqidagi qimmatli fikrlari va tajribalarini oʻrgatish va amaliyotda qoʻllash nazarda tutilishi kerak.

Dasturda notiqlik sanʼati sirlari, u haqdagi maʼlumotlarni oʻrgatish bilan birga amaliy mashgʻulotlarini oʻtkazib borish, oʻquvchilarda bu fanga boʻlgan qiziqishni orttiradi. amaliy mashgʻulotlar biror mavzu oʻtilgandan keyin yoki oʻrganilgan badiiy asarlar, guvohi boʻlingan voqealar yuzasidan avvaliga oddiy, qisqa- qisqa 3-5 daqiqali, keyinroq 10-15 daqiqali nutq matnlarini yozdirish va oʻquvchilar oʻrtasida ularning taqdimotini oʻtkazish yaxshi samara berishi mumkin. Bunda oʻquvchilar bir-birlarining nutqlarini tinglaydilar, bir-birlarining notiqlik darajalariga baho beradilar, yutuq va kamchiliklar muhokama qilinadi. Shu tariqa ular nitqi charxlanib boradi.

Mashgʻulotlar turli mavzularda tashkil etilishi mumkin. Masalan: 8-sinfda “Menga yoqqan adabiy qahramon”, “Doʻstimni nima uchun hurmat qilaman?”, “Asar haqidagi fikrlarim”, “Kindik qonim toʻkilgan tuproq”, “Qiziqarli oʻtgan uchrashuv”, “Eng qiziqarli voqea”, “Menga yoqqan kitob”, “Sheʼriy matnning eng yaxshi tahlili”, “Nasriy matn tahlili”, “Gʻazal tahlili” va h.k. 9-sinfda «Qaysi badiiy asarni sevib oʻqigansiz? undagi oʻzingizga yoqqan qahramonni tavsiflang», «Sevimli mashgʻulotingiz nima, qanday dam olasiz», «Hozirgi davrda sizni koʻproq nima oʻylantiradi», «Maktab rahbari boʻlib qolsangiz...» va h.k.

Mashgʻulotlar musobaqa tarzida tashkil etilishi ham mumkin. Masalan: “Eng zoʻr notiq”, “Kimning nutqi taʼsirchan va qiziqarli?”, “Allomalarimiz notiqlik haqida”, “Kim nasriy va sheʼriy matn boʻyicha taʼsirchan va qiziqarli gapiradi?” va h.k.

Mazkur tavsiyalar bir namuna boʻlib, unga ijodiy yondashish, izlanish, mashgʻulotlarni yanada qiziqarli va taʼsirli etib oʻtkazish har bir oʻqituvchining oʻz bilimdonligiga va mahoratiga bogʻliqdir.

DASTUR

8-sinf (34 soat)

Kirish. Dasturning maqsad va vazifalari. 1 soat.

Notiqlikning katta ijtimoiy qudratga ega taʼlim va tarbiya vositalaridan ekanligi. Uning asosiy vazifasi notiq boʻlishga undovchi qonuniyatlarni

o'rgatishdir. "Notiqlik san'ati- aqlni charxlash, jamiyat hayotini boshqarishda shaxsning shakllanishini ta'minlovchi vositalardan biri ekanligi

"Notiqlik san'atining "Nutq madaniyati" dan farqi". 1 soat

Notiqlikning san'at, nafosat haqidagi fan ekanligi. Notiqlik nutqning og'zaki shakli ekanligi. Nutq madaniyati esa nutqining ham og'zaki, ham yozma shakli uchun taalluqliligi. Ular orasidagi boshqa farqlar.

Buyuk allomalar notiqlik haqida. 1 soat.

Nutq orqali ishontirishga erishishda, nutq va notiqlik haqida, so'zlovchi shaxsi, uning xatti- harakatlarida qaysi jihatlar etakchilik qilishi haqida buyuk kishilar bildirgan qimmatli fikrlar.

Sharq notiqlik san'ati. 1 soat.

O'rta Osiyoda qadimdan so'zga chechan, badiiy didli kishilarning qadrlanib kelinganligi. Notiqlik san'atining **"voizlik"**, notiq **"voiz"**, nutq esa **"va'z"** deb atalganligi.

Abu Nasr Farobiy notiqlik haqida. 1 soat.

Uning nutq va notiqlik haqidagi fikrlari. Farobiyning to'g'ri so'zlash, mantiqiy xulosa chiqarish, go'zal nutq tuzishda, til ilmining ahamiyatiga bergan bahosi.

Abu Ali Ibn Sino do'stlik va notiqlik haqida. 1 soat.

Uning erkin fikr haqidagi qarashlari. Erkin fikr bildiriladigan jamiyatda rivojlanish bo'lishi. Allomaning yaxshi tarbiyachi, notiqni yaxshi do'st sifatida ko'rishi va notiq (voiz) haqidagi qarashlari

Kaykovusning "Qobusnoma" asarida notiqlik. 1 soat.

Asarda notiqlikning ulug'lanishi. Unda "notiqlikning, ya'ni so'z hunarining barcha hunarlar ichida a'losi" deya ta'kidlanishi. Notiq amal qilishi lozim bo'lgan qoidalarining ahamiyati.

Alisher Navoiy notiqlik haqida. 2 soat.

Alisher Navoiyning notiqlik san'atining buyuk qudratiga katta e'tibor qaratganligi. Mutafakkirning "Mahbub ul-qulub" va boshqa asarlarida voizlikning ulug'lanishi. Uning asarlarida notiqqa qo'yiladigan talablar.

Mutafakkirning notiqlikka nisbatan qarashlari. Navoiyning voizlik haqidagi hikmatlari.

Mavlono Irshod, Qozi O'shiy, Xoja Muayyad Mehnagiy, Mavlono Riyozilarning notiqlik mahoratlari. 3 soat.

Sharq voizlarining notiqlik haqidagi qarashlari, ularning hayratlanarli darajada tinglovchilar qalbini larzaga keltira olganliklari. Ularning mahoratlari, iste'dodlari, zakovatlari qarshisida shohlar va sultonlarning ham bosh egganliklari.

Husayn Voiz Koshifiyning voizlik haqidagi qarashlari. 1soat.

Koshifiyning o'z davrining mashhur allomalaridan ekanligi. Uning notiqlik ahamiyati haqidagi fikrlari. Alisher Navoiyning, Husayn Boyqarolarning voiz Koshifiyga bo'lgan ehtiromlari. Voiz haqida Xondamirning fikrlari.

Mavlono Muin voizning notiqlik va ijrochilik mahorati. 1 soat.

Voizning o'z sohasiga haddan tashqari ixlos qo'yganligi. Uning ijro mahorati va u haqdagi fikrlar.

Notiqning nutq jarayonidagi qo'llaydigan usullari. Joziba. Ishonch. Do'stona munosabat. Samimiylik. 1 soat.

Joziba insonning nutq jarayonida tabiiy o'zligi bilan namoyon bo'lishi ekanligi. O'z-o'ziga ishonch puxta bilim belgisi ekanligi.

Stress holati va undan chiqish yo'llari. 1 soat.

Nutq jarayonida stress (hayajon) ning foydali ekanligi. Uni engishning asosiy omili nitqqa puxta tayyorlanish ekanligi.

Mavzularni o'rganish uchun 16 soat

Amaliy mashg'ulotlar uchun 16 soat

O'rganilganlarni nazorat qilish 2 soat

Notiqlik san'ati" dasturi bo'yicha taxminiy rejalashtirish

8-sinf

(34 soat)

№	Mavzu	Soat
1	Kirish. Dasturning maqsad va vazifalari	1
2	"Notiqlik san'ati" ning "Nutq madaniyati" dan farqi	1
3	Buyuk allomalar notiqlik haqida	1
4	Amaliy mashg'ulot. «Notiqlikning ahamiyati»	1
5	Abu Nasr Farobiy. Uning nutq va notiqlik haqidagi fikrlari	1
6	Amaliy mashg'ulot. «To'g'ri so'zlash va mantiqiy xulosa chiqarishda uchta ilm (til, grammatika- nutq tuzilishi, mantiq- logika)ning ahamiyati» mavzusida nutq tayyorlash va muhokama qilish	2
7	Abu Ali Ibn Sino do'stlik va notiqlik haqida.	1
8	Amaliy mashg'ulot. Ibn Sinoning notiqqa qo'ygan talablari asosda nutq tayyorlash va muhokama qilish	1
9	1-DNI. «Notiq qanday bo'lishi kerak»	1
10	Kaykovusning "Qobusnoma" asarida notiqlik	1
11	Amaliy mashg'ulot. Kaykovusning notiqlikni egallashga qo'ygan talablari asosida muhokama. «Hamma hunarlar ichida a'losi- so'z hunari» mavzusida nutq tayyorlash va muhokama	2
12	Alisher Navoiy notiqlik haqida. Navoiy hikmatlari asosida bahs-munozara tashkil etish	2
13	Amaliy mashg'ulot. «Chin so'z e'tiborli, yaxshi so'z qisqa bo'ladi », «Bir deganni ikki demak xush emas, So'z chu takror topti dilkash emas» mavzularida nutq tayyorlash va taqdimot o'tkazish	2
14	Mavlono Irshod, Qozi O'shiylarning notiqlik mahoratlari.	1
15	«Nutqning inson ruhiyatiga ta'siri», «Ta'sirchan nutq- inson ko'nglining kaliti» mavzusida nutq tayyorlash va taqdimot o'tkazish	2
16	Xoja Muayyad Mahnagiy. Notiqning tinglovchiga munosabati	1
17	Mavlono Riyoziy.	1
18	Amaliy mashg'ulot. Notiq nutqida xaiq og'zaki ijodi va badiiy vosilardan foydalanishning ahamiyati	1
19	Husayn Voiz Koshifiyning voizlik haqidagi qarashlari	1

20	Amaliy mashg'ulot. «Notiqlikda axloq-odob masalalari va insoniy fazilatlar	2
21	Mavlono Muin Voizning notiqlik va ijrochilik mahorati	1
22	Amaliy mashg'ulot. «Notiqlik va ijrochilik»	1
23	Notiqning nutq jarayonida qo'llaydigan usullari.	1
24	Amaliy mashg'ulot.	1
25	Stress holati va undan chiqish yo'llari	1
26	2-DNI. «Notiq- mening tasavvurimda»	1
27	Do'stona munosabat. Samimiylik.	1
28	Amaliy mashg'ulot.	1

Dastur **9-sinf (34 soat)**

Kirish. 1 soat.

Notiqlikning Afinada paydo bo'lganligi. Bir qator notiqlarning yetishib chiqishi. Notiqlarga qo'yiladigan talablar. Notiqlikning til va tafakkur bilan bog'liq ekanligi.

Notiqlik san'ati tarixi va uning turlari. 2 soat.

Mohir notiqlarga xos xususiyatlar. Yunonistonda notiqlikka bo'lgan ehtiyojning kuchayishi. Notiqlarga xos fikrda aniqlik, soddalik, ravonlik va lo'ndalik. Siyosiy notiqlik. Sud notiqligi. Epidektik nutq.

Qadimgi Afinada notiqlik. Mazkur san'atga qiziqish tufayli turli darajadagi maktablar paydo bo'lganligi.

Ritorika nima uchun o'rganiladi? 1 soat

Ritorika so'zining notiq so'zi ma'nosidan kelib chiqqanligi. Ritorikaning nutq orqali zavq ulashish, odamlar bilan erkin muloqotga kirishish, jamoa orasida o'z fikrini himoya qilish vositasi ekanligi.

Notiqlikning inson hayotidagi o'rni.

Buyuk allomalar notiqlik haqida. 2 soat.

Buyuk mutafakkir olimlarning notiqlik san'ati, uning ahamiyati, so'z, uni tanlab o'z o'rnida ishlatish bo'yicha bildirgan fikrlari.

Notiqlik san'ati va badiiy adabiyot. 1 soat.

Notiqlikning badiiy adabiyot bilan bog'liqligi. Yozma adabiyotning paydo bo'lishida notiqlikning roli. Uning badiiy adabiyot rivojida o'rni.

Gorgiy. 1 soat.

Notiqning hayoti va ijodi. Uning ishontirish mahorati, notiqning o'ziga xos uslubi. Gorgiyning «Sofistika otasi» nomini olganligi. Gorgiy notiqlik haqida.

Lisiy. 2 soat.

Uning hayoti va ijodi. Lisiyning logografik mahorati. Notiqning turli toifa insonlar ruhiyatini bilishi va ularga yozgan nutqining shunga asosan tayyorlash qobiliyati. Lisiy uslubining latofati, tilining soddalik, lo'nda va ravshanligi.

Suqrot. 1 soat.

Uning notqlik falsafasi. Faylasufning nitqni tirik mavjudotga o'xshatish g'oyasi. Oddiy so'z emas, ma'noga to'yingan so'zning qudratga ega bo'lishi haqidagi fikrlari.

Demosfen. 2 soat.

Demosfenning hayoti va ijodi. Notqlikka erishishga bo'lgan ishtiyoqi va tirishqoqligi. Uning bosqinchi Filippga qarshi nutqlarining ahamiyati. Demosfen haqidagi fikrlar.

Aristotel. 2 soat.

Uning hayoti va ijodi. «Ritorika» asarining ahamiyati. Asarda chiroyli so'zlash, ishtirak uslublari hamda nitq mantiqiga ahamiyat qaratilganligi. Ularda notiqqa qo'yiladigan talablar.

Mark Tulliy Sitseron. 2 soat

Notiqning antik dunyoning ikkinchi ulug' so'z ustasi ekanligi. uning noyob notqlik salohiyati. sitseronning zamondoshlarini nafaqat notqlik, balki ilm- fan, falsafa, madaniyat samaralaridan bahramand etishga katta e'tibor berganligi.

Nutqqa tayyorgarlik ko'rish. 1 soat.

Qadimdan omma oldiga tayyorgarliksiz chiqish mumkin bo'lmaganligi. Buyuk notiqning nutqqa tayyorgarlik haqidagi qarashlari. Demosfen, Sitseronlar nutqqa tayyorgarlik haqida.

Ko'pchilik oldida so'zga chiqish uchun qoida va yo'riqlar.

Zamonaviy ritorika qonunlari va nutq turlari 2 soat.

Ritorika qonunlari umumritorik idealni aks ettirishi. Ritorik qonunlarga amal qilish nutq jarayonining samarali va natijali bo'lishi omili ekanligi.

Stress holati va unga qarshi kurash. 1 soat.

Stress (hayajon) qattiq hayajon, ruhiy zarba holati ekanligi. Notiq uchun hayajonlanish foydaliligi. Mazkur hissiyot nutqning muvaffaqiyatini ta'minlovchi omilligi.

Nutq turlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar 2 soat.

NOTIQ AMAL QILISHI LOZIM BO'LGAN QOIDALAR 1SOAT

Mavzularni o'rganish uchun 14 soat

Amaliy mashg'ulotlar uchun 18

soat

O'rganilganlarni nazorat qilish 2 soat

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Notqlik asoslari" Norqul Bekmirzayev T., "Fan", 2006.
2. «O'zbek nutq madaniyati va uslubiyat asoslari» Yo. Tojiyev va b. T., "Universitet", 1994.
3. "Notqlik san'ati asoslari" S. Inomxo'jayev T., "O'qituvchi", 1982.
4. "Notqlik san'ati" Hodiy Jalilov T., "O'zbekiston", 1976.
5. "Notqlik mahorati" B. O'rinboyev T., "O'qituvchi", 1984.
6. "Mahbub-ul qulub" A.Navoiy T., "Fan", 1982.
7. "Antik adabiyot tarixi" A. Alimuhammedov T., "O'qituvchi", 1969.
8. "Notqlik san'ati" A.Ahmedov T., "O'zbekisotn", 1967.
9. "Qobusnoma" Kaykovus T., "Meros", 1992.

10. "Nutq madaniyati va notiqlik san'ati" A.Ortiqov T., 2002
11. «Osnovi Ritoriki» N. Mixal'skaya. Moskva. «Prosvishenie», 1996

«Notiqlik san'ati» dasturi bo'yicha taxminiy rejalashtirish
9-sinf (34 soat)

№	Mavzu	Soat
1	Kirish. Dasturning maqsad va vazifalari	1
2	Notiqlik san'ati tarixi va uning turlari..	1
3	Amaliy mashg'ulot. Epidektik (tantanali nurq) notiqlik bo'yicha matn tayyorlatish	1
4	Ritorika nima uchun o'rganiladi?	1
5	Amaliy mashg'ulot. «Notiqlikning inson hayotidagi o'rni» mavzusida matn tayyorlatish va taqdimot o'tkazish	1
6	Buyuk allomalar notiqlik haqida	1
7	Amaliy mashg'ulot. «So'zamollk – aqlga sayqal beruvchi nur» mavzusida matn tayyorlash va muhokama uyushtirish	2
8	1-DNI. «So'zdan qudratli narsa yo'q» Matn yaratish	1
9	Notiqlik san'ati va badiiy adabiyot.	1
10	Amaliy mashg'ulot. Badiiy asarlardan qahramonlarning qiyomiga etkazib aytilgan nutqlaridan namunalar to'plash va taqdimot o'tkazish	2
11	Gorgiyning hayoti va ijodi. Notiqning o'ziga xos uslubi. Gorgiy notiqlik haqida.	1
12	Amaliy mashg'ulot. Ishontirish usuli bo'yicha bahs-munozara	1
13	Lisiy. Lisiyning logografik mahorati. Notiqning nutq tayyorlash qobiliyati.	1
14	Amaliy mashg'ulot. «Notiq nutqida uning ruhiyati aks etadi» mavzusida matn yaratish va taqdimot o'tkazish	2
15	Sugrot. Uning notiqlik falsafasi.	1
16	Amaliy mashg'ulot. «Oddiy so'z emas, ma'noga to'yingan so'zning qudratli bo'ladi»	1
17	Demosfen. Demosfenning hayoti va ijodi. Notiqlikka erishishga bo'lgan ishtiyoqi	1
18	Amaliy mashg'ulot. «O'z-o'zini notiqlikka qanday tayyorlash kerak?» mavzusida bahs-munozara, matn yaratish	2
19	Aristotel. «Ritorika» asarida chiroyli so'zlash, ishontirish uslublari hamda nitq mantig'i.	1
20	Amaliy mashg'ulot. «Notiqqa qo'yiladigan talablar». Muhokama, munozara	2
21	Mark Tulliy Sitseiron.	1
22	Amaliy mashg'ulot. «Notiqlikda hikmatli go'z, qochiriq va hazil-mutoibalardan foydalanish» mavzusida nutq matni tayyorlash.	1
23	Zamonaviy ritorika qonunlari va nutq turlari.	1
24	Nutq turlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar: a) asoslovchi nutq, b) targ'ibot qiluvchi nutq, v) epideytik nutq, g) axborot beruvchi	3

	nutq, d) badiiy- shoirona nutq	
25	Nutqqa tayyorgarlik ko‘rish.	1
26	Amaliy mashg‘ulot. «Qiziqarli uchrashuv» mavzusida matn tayyorlash, taqdimot o‘tkazish	1
27	2-DNI. «Assalom, yoshlik!» mavzusida tantanali nutq matni tayyorlash	1
28	Stress holati va undan chiqish yo‘llari	1
29	Xulosa. Notiq amal qilishi lozim bo‘lgan qoidalar	1